

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**



KIMYO KAFEDRASI

«ORGANIK KIMYO»

Bilim sohasi: 300 000 - Ishlab chiqarish-texnik soha

Ta'lim sohasi: 310 000 - Muhandislik ishi

Ta'lim yo'nalishi: 5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)

Namangan 2020

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi OO"MTV tomonidan 14.08.2020 yil 418-son buyryq bilan tasdiqlanga Umumiy va anorganik kimyo fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

F.Xoshimov

NamMTI Kimyo kafedrasi dosenti, t.f.n.

-

Taqrizchilar:

Sh.Abdullayev

NamDU Kimyo kafedrasi professori, k.f.d.

-

I.Abidov -

NamMTI Kimyo kafedrasi dosenti, t.f.n.

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi NamMTI kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2020 yil 29 avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

№	O'QUV MATERIALLARI
	MA'RUZALAR MATNI
1	AMALIY MASHG'ULOTLAR
2	LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI
3	MUSTAQIL ISH BAJARISH BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMA
4	ГЛОССАРИЙ
5	ILOVALAR
	ISHCHI O'QUV DASTUR
6	TESTLAR VARIANTLARI
7	MASALA ORALIQ NAZORAT
8	«ORGANIK KIMYO» FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI
9	TAYANCH IBORALAR
10	TARQATMA MATERIALLAR
11	FOYDALI MASLAHATLAR

O'QUV MATERIALLARI

ORGANIK KIMYO

MA'RUZALAR MATNI

MA'RUZA № 1

FANINING RIVOJLANISHI


A.M.Butlerovning kimyoviy tuzilish nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1.Organik modda molekulasini tashkil qiluvchi atomlar bir-biri bilan ma'lum izchillikda bog'lanib, doimo bir-biriga ta'sir qilib turadi.
- 2.Moddalarning fizik va kimyoviy xossalari molekulalarning tarkibi hamda ularning tuzilishiga bog'liq. Molekulasining tarkibi, molekulyar og'irligi bir xil bo'lib, ammo kimyoviy tuzilishi va xossalari har xil bo'lgan moddalar "izomerlar" deyiladi.
- 3.Kimyoviy tuzilish - molekuladagi atomlarning birikish tartibidir. Har bir molekula o'ziga xos yagona kimyoviy tuzilishga ega.
- 4.Organik moddalarning kimyoviy tuzilishi ularning xossalarini o'rganish va klassik kimyoviy reaksiyalar orqali aniq tuzilishga ega bo'lgan moddalarni hosil qilish orqali aniqlanadi.
- 5.Organik moddalarda uglerod elementi doimo to'rt valentli bo'lib, boshqa elementlar bilan birikishdan tashqari o'zaro ham birikib to'g'ri, tarmoqlangan va xalqasimon zanjirlar hosil qila oladi.

Butlerov tomonidan kashf etilgan bu nazariya moddalarning aniq tuzilishini ko'rsatadi. Bu nazariya yordamida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan va yangi topilgan moddalarni to'la klassifikasiyalash mumkin bo'ldi, yangi moddalarning sintez yo'llari ko'rsatildi.


Organik moddalarni klassifikasiyalashda quyidagilar asos qilib olindi:

- 1.Uglerod organik moddalarda doimo to'rt valentli.
- 2.Agar organik moddalar tarkibida uglerod atomlari soni ko'p bo'lsa, ular zanjirsimon bog'li birikmalar hosil qiladi. Bunga uglerod skeleti deyiladi. Uglerod skeleti har xil bo'lishi mumkin:
 - 1.Uglerod skeleti to'g'ri yoki tarmoqlangan zanjirli birikmalarda bo'lishi mumkin, bunga asiklik birikmalar deyiladi.




Asiklik birikmalar to'yingan va to'yinmagan birikmalarga bo'linadi.

To'yinmagan birikmalarda uglerod atomlari o'zaro qo'sh va uch bog'lar orqali birikkan bo'ladi.




2.Karbosiklik birikmalar. Bunga uglerod atomlaridan tashkil topgan xalqa shaklidagi zanjirli birikmalar kiradi. Ular ikkiga bo'linadi:


II. a) alisiklik birikmalar.



b) aromatik birikmalar, tarkibida C_6H_6 gruppasi benzol xalqasi bo'ladi.



v). Geterosiklik birikmalar. Bu sinfga xalqada ugleroddan boshqa element (kislorod, azot, oltingugurt va boshqalar) atomlari ham bo'ladigan xalqasimon (siklik) birikmalar kiradi:



Qolgan organik moddalar esa shu I a, b, va II a, b, v skeletli moddalarning hosilasi deb qabul qilingan **R-X**.

R - radikal. I va II skeletlar.

x - funksional guruhlar.

x = -F, -Cl, -Br, -I - galloid hosilalar

-OH - spirtlar


-CHO, =C=O aldegid va ketonlar

-COOH - kislotalar

-NH₂ - aminobirikmalar


-NO₂ - nitrobirikmalar va boshqa birikmalar

Butlerovning nazariyasi uning shogirdi Markovnikov yordamida to'ldirildi. U tomonidan o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan atomlarning bir-biriga ta'siri borligi o'rganildi. Masalan, CH₃COOH molekulasida karboksil guruhdagi vodorod atomiga metil guruhining ta'siri borligi, sirka kislotasining kuchsiz kislota ekanligi va metil guruhidagi vodorod atomlarini elektronmanfiyligi uglerod va vodorodnikidan kattaroq bo'lgan xlor atomiga almashinganda kislota kuchining ortishi aniqlandi. Ya'ni:




Bundan tashqari organik moddalar tarkibidagi atomlar va atomlar guruhlarining fazoviy tuzilishi haqida Butlerov qisman aytib o'tgan edi. Vant-Goff uni yanada mukammallashtirib fazoviy tuzilishni - stereoizomeriya orqali tushuntirib berdi.

Organik kimyoda uchraydigan izomeriya tiplari:




Misollar:


I. $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_3$



II. a)



b)




Nomenklatura. Organik moddalarni nomlashda asosan uch xil nomenklaturadan foydalaniladi.

1.Trivial (tasodifiy), masalan, metan, etan, propan, butan, chumoli, sirka.


2.Rasional - bu nomenklaturaga asosan gomolitik qatorning birinchi yoki ikkinchi a'zolaridan biri (masalan, metan) a'zosi asos qilib olinib, qolganlari uning hosilasi deb qaraladi.

Masalan,



Lekin murakkab, juda tarmoqlangan strukturaga ega bo'lgan moddalarni bu nomenklaturada nomlab bo'lmaydi.

3.Jeneva nomenklaturasi. 1892 yilda Jenevada xalqaro kimyogarlar kongressida yangi nomenklatura qabul qilindi. 1960 yilda Jeneva nomenklaturasi takomillashtirilgan holda, ya'ni ayrim tuzatish va tartibga solish orqali IYUPAK (sof va amaliy kimyo xalqaro ittifoqi) komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan yangi nomenklatura e'lon qilindi. Hozir esa bu sistematik nomenklatura nomini oldi. Bu nomenklaturaga asosan nomlashda quyidagilar e'tiborga olinadi: 1) uzun zanjir tanlanadi, 2) zanjirning qaysi uchiga o'rinbosir yaqin bo'lsa o'sha tomondan nomerlanadi, 3) oldin kichik sonli o'rinbosar keyin kattasi aytiladi yoki ikkita bir xil o'rinbosar bo'lsa di-, uchta bir xil bo'lsa tri-,to'rtta bir xil bo'lsa tetra- so'zi qo'shib aytiladi. Eng oxirida asosiy zanjir nomi aytiladi. Masalan,



Asosan darsliklarda Iyupak nomenklaturasi ishlatiladi.

Molekulyar orbitallar to'g'risida tushuncha, uglerod atomining sp^3 -, sp^2 -, sp - gibridlangan orbitallari. Ma'lumki, kovalent bog'lanish fazoda yo'naluvchanlik xususiyatiga ega. Bu xususiyat molekulaning muayyan shaklga ega bo'lishiga sababchi ekanligini, bog'ning yo'naluvchanligi esa atom orbital (AO) larning faqat muayyan yo'nalishlaridagina joylasha olishi va bir-birini qoplab olishi mumkinligidan kelib chiqadi.

Masalan, vodorod va kislorod AO laridan suv molekulyar orbitali (MO) hosil bo'ladi. Azot va vodorod AO laridan ammiak MO i hosil bo'ladi.

Organik kimyoda uglerod atomining elektron tuzilishini bilish organik moddalardagi bog'larning tabiatini tushunishga yordam beradi. Uglerod atomining elektron konfiguratsiyasi quyidagicha: $^{12}_6C$. $1s^2 2s^2 2p^2$. Atom orbitallar s, p, d va hokazo orbitallarga bo'linadi. s-orbital shakli sferik ya'ni sharsimon bo'ladi va bu orbital bo'ylab xarakterlanadigan elektron s-elektron deyiladi. p-atom orbitali gantelsimon harakat qiladigan elektronlar p-elektronlar deyiladi va ularning harakatidan hosil bo'ladigan elektron bulutlari o'zaro perpendikulyar va koordinatlar o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi.

Shu xarakatlarni ko'p marotaba qaytarilsa bir-biridan uglerod atomlari soni bilan farq qilinadigan qolgan uglevodorodlar formulasini chiqarsa bo'ladi. Natijada bir qator birikmalar hosil bo'ladi. Bu qatorda har bir birikma boshqasidan bir gurux - CH_2 bilan farqlanadi. Bunday qator gomologik qator deyiladi. Uning alohida xalqalari esa gomologlar deb ataladi. Ular bir-biriga yaqin bulgan kimyoviy xossalarga hamda qonuniy ravishda o'zgaradigan fizik xossalari ega. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki gomologik qatorning har bir xalqasida n uglerod atomlariga $2n+2$ vodorod atomlari to'g'ri keladi. Shuningdek bu qatorning har qanday xalqasining tarkibi C_nH_{2n+2} umumiy formulasi bilan ifodalanadi. Shu formulani alkan molekulasidagi uglerod atomlari sonini bilgan ravishda har qanday tuyingan uglevodorodni molekulyar formulasini osonlikcha yozish mumkin. Masalan, agar n 25 ga teng bo'lsa bunda uglevodorod quyidagi formula bilan ifodalanadi: $C_{25}H_{52}$

1-jadval.

Tuyingan uglevodorodlar gomologik qatorini normal tuzilishi va ularning bir valentli radikallari.

Alkan		Izomerlar soni	Radikal	
Formulasi	Nomi		Formulasi	Nomi
CH_4	Metan	1	CH_3-	Metil
C_2H_6	Etan	1	C_2H_5-	Etil
C_3H_8	Propan	1	C_3H_7-	Propil
C_4H_{10}	Butan	2	C_4H_9-	Butil
C_5H_{12}	Pentan	3	$C_5H_{11}-$	Pentil
C_6H_{14}	Geksan	5	$C_6H_{13}-$	Geksil
C_7H_{16}	Geptan	9	$C_7H_{15}-$	Geptil
C_8H_{18}	Oktan	18	$C_8H_{17}-$	Oktil
C_9H_{20}	Nonan	35	$C_9H_{19}-$	Nonil
$C_{10}H_{22}$	Dekan	75	$C_{10}H_{21}-$	Dezil

Agar alkandan bir vodorod atomi olinsa bir valentli uglevodorodli qoldiq - radikal hosil bo'ladi.

Ikkita yoki uchta vodorod atomlari yuqotilgan holda shunga mos ravishda 2 yoki 3 ta bir valentli radikallar hosil bo'ladi

2-jadval.

Ko'p uchraydigan uglevodorodli qoldiqlar.

Nomlanishi	Radikal formulasi	Nomlanishi	Radikal formulasi
Metil	$\text{CH}_3\text{-}$	Etil	$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-}$
Metilen	$\text{CH}_2\text{=}$	Etiliden	$\text{CH}_3\text{-CH=}$
Metin	$\text{CH}\equiv$	Etilidin	$\text{CH}_3\text{-C}\equiv$
n- propil	$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-}$	Izobutil	$(\text{CH}_3)_2\text{-CH-CH}_2\text{-}$
Propiliden	$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH=}$	Ikkilamchi- butil	$\begin{array}{c} \text{CH}_3 \\ \\ \text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH-} \end{array}$
Izopropil	$(\text{CH}_3)_2\text{CH-}$	Uchlamchi –butil	$(\text{CH}_3)_3\text{-C-}$
n- butil	$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-}$	n-pentil	$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-}$

MA'RUZA № 2 ALKANLAR

Radikallarni keltirilgan nomlanishlarida quyidagi belgilar qo'llaniladi: n-normal, ikkil-ikkilamchi, uchl- uchlamchi. Ikkinchi jadvaldan ko'rinib turibdiki radikalda bosh valentlik har xil uglerod atomlarida joylashadi. Agar radikalda bosh valentlik birinchi uglerod atomiga joylashsa birlamchi deb ataladi. Shuningdek, ikkilamchi va uchlamchi radikallar mavjuddir.


CH_3 - birlamchi bir valentli radikal.

$(\text{CH}_3)_2\text{CH}$ -ikkilamchi bir valentli radikal.


$(\text{CH}_3)_3\text{C}$ - uchlamchi bir valentli radikal.

Nomenklatura. To'yingan uglevodorodlarni nomlash uchun asosan sistematik va rasional nomenklaturalar qo'llaniladi. Metanni gomologik qatoridagi birinchi to'rtta uglevodorod nomlari trivialdir-metan, etan, propan, butan. To'yingan uglevodorodlarning umumiy nomlanishi alkanlardir. Sistematik nomenklatura bo'yicha quyidagicha nomlanadi:


1. Alkan molekulasini formulasida eng uzun asosiy zanjirni topiladi.




2. So'ng bu zanjirni radikal yaqin bo'lgan tomondan nomerlanadi. Agar radikallar bir necha bo'lsa ularni ko'rsatib turgan raqamlar eng kichik bo'lishi kerak. Radikallarni alfavit bo'yicha belgilanadi.



Uglevodorodni quyidagi tartib bo'yicha nomlanadi: radikal joylashgan o'rnini raqam bilan ko'rsatiladi, so'ng shu radikal nomini aytiladi. Oxirida eng uzun zanjir nomi aytiladi. Shunday qilib, uglevodorod quyidagicha nomlanadi: 2-metil 4-etil heptan. Agar asosiy zanjirda bir necha bir xil radikallar bo'lsa ularni sonini grek raqami bilan belgilanadi va uni shu radikal oldiga qo'yiladi. Masalan, di-, tri-, tetra- va hokazo. Rasional nomenklatura bo'yicha uglevodorodlarni metan xosilalari deb o'rganiladi, uning molekulasida bir yoki bir necha vodorod atomlari radikallar bilan o'rin almashingan. Agar bu radikallar bir xil bo'lsa ularni soni ko'rsatiladi. "Metan" so'zi nomlanishni asosi bo'ladi.



tetrametilmetan (2,2 - dimetil propan)




metiletilizopropilmetan (2,3-dimetilpentan)

Radikallar ham o'z nomenklaturasiga ega bir valentli radikallarni alkil deb ataladi va R yoki Alk deb belgilanadi. Ularni umumiy formulasi $\text{C}_n\text{H}_{2n+1}$. radikallarni nomlanishini uglevodorodlar nomlaridan tuziladi va bu yerda -an qo'shimchasini -il qo'shimchasiga almashtiriladi. Ikki valentli radikallarda -an ni -iliden ga almashtiriladi.

Izomeriya


Alkanlar uchun struktura izomeriyasi eng sodda xarakterdagi izomeriya turidir.

Metan, etan, propanning izomeri yo'q. Butanning ikkita, pentanning uchta izomeri mavjud.


$$\begin{array}{ccccccc} \text{C}_4\text{H}_{10} - 2 \text{ ta} & \text{C}_5\text{H}_{12} - 3 \text{ ta} & \text{C}_7\text{H}_{16} - 9 \text{ ta} & \text{C}_8\text{H}_{18} - 18 \text{ ta} & \text{C}_9\text{H}_{20} - 35 \text{ ta} & \text{C}_6\text{H}_{14} - 5 \text{ ta} & \text{C}_{10}\text{H}_{22} \\ - 75 \text{ ta} & \text{C}_{15}\text{H}_{32} - 4347 \text{ ta} . \end{array}$$
CC(C)(C)CC(C)(C)CC(C)(C)CC(C)C

3,3,5,5-tetrametil-6-etil-7-izobutil dekan

Bu yerda birlamchi uglerod atomlari yumaloq shaklga olib qo'yilgan, ikkilamchisi - to'rtburchakka, uchlamchisi - uchburchakka va to'rtlamchisi punktir bilan belgilangan. Bunday bo'lishi katta ahamiyatga ega, chunki birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari har xil reaksiya qobiliyatiga ega. Radikallar qatorida ham biz izomeriya holati bilan to'qnashamiz. Radikallarda alkanlarga qaraganda izomerlari ko'proqdir. Masalan, propanda izomerlar yuq, lekin propil radikali ikkita - n-propil va izopropil izomeriga ega.




Bu erkin valentli uglerod atomlarini har xil burchaklarida joylasha olishi bilan bog'liq.

To'yingan uglevodorodlarning tabiatda uchrashi va olinishi


To'yingan uglevodorodlarning quyi vakillari tabiiy gazning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qattiq holdagi to'yingan uglevodorodlar bitum, asfalt, azokerit (tog' mo'mi) larning asosiy tarkibiy qismidir, neft to'yingan uglevodorodlar aralashmasiga boy tabiiy manbadir. To'yingan uglevodorodlarning ba'zi vakillari o'simliklardan ajratib olingan. Parafin uglevodorodlari fiziologik aktiv moddalar bo'lmasada, lekin kuchli erituvchilar hisoblanadi, shu sababli organizm uchun xavflidir.

Olinish usullari (sanoatda)


1. Elementlardan sintez qilib olish.



yoki qo'ng'ir ko'mirni gidrogenlash natijasida to'yingan uglevodorodlar olinadi, bunda sun'iy benzin olish mumkin.




2. Uglerod (II)-oksidini gidrogenlash orqali to'yingan uglevodorodlarni olish (F. Fisher).




Bunda asosan n-tuzilishli to'yingan uglevodorodlarining aralashmasi hosil bo'ladi va "Sintin" deb ataladi.

3. Neft mahsulotlarini krekinglash natijasida to'yingan uglevodorodlar olinadi.




Laboratoriyada olinish usullari

4. Alyuminiy karbidga suv ta'sir etish orqali metanni olinishi.




5. Metanni Bertlo usuli bo'yicha uglerod sulfiddan olinishi.





6. Sirka kislota tuzidan (dekarboksillanish) olish.






7. Vyurs reaksiyasi (1985). Alkanlarni galogenli hosilalarini natriy metali bilan qizdirib to'yingan uglevodorodlar vakillarini sintez qilib olish.








Bu reaksiyaning mexanizmini Shorigin tomonidan 1907 yilda aniqlangan. U quyidagi ikki bosqichdan iborat.





8. 1849 yilda Nemis olimi Kolbe organik kislota tuzlarini elektroliz qilib to'yingan uglevodorodlarni oladi.





9. Har xil birikmalarni qaytarish orqali.





10. To'yinmagan va o'ta to'yinmagan uglevodorodlarni gidrogenlash.




11. Metall organik birikmalarni suv ta'sirida parchalash usuli bilan ham to'yingan uglevodorodlarni olish mumkin.



Grinyar reaktivi orqali to'yingan uglevodorodlarni olish: dastlab Grinyar reaktivi olinadi. Olingan magniy organik birikma suv ta'sirida parchalanib to'yingan uglevodorodlar olinadi.



12. Galogenhosilalarni qaytarilishi.




Fizik xossalari


Alkanlarning dastlabki vakillari $\text{C}_1\text{-C}_4$ oddiy sharoitda gaz holidagi moddalar, $\text{C}_5\text{-C}_{16}$ gacha bo'lganlari suyuqlik va C_{17} - dan boshlab esa qattiq moddalardir. Gomologik qatorda uglerod atomlarining soni ortishi bilan alkanlarning suyuqlanish va qaynash harorati hamda solishtirma og'irligi oshib boradi. Alkanlarning solishtirma og'irligi va zichligi gomologik qatordagi uglevodorodlarning molekulyar og'irligi oshishi bilan ortib boradi.

1. Galogenlanish reaksiyalari.


Galogenlar yorug'lik nuri ta'sirida to'yingan uglevodorodlar bilan reaksiyaga kirishadi. Metanga xlor ta'sir ettirilganda metanning vodorod atomlari birin-ketin xlor atomlariga almashinadi va vodorod xlorid ajralib chiqadi:




Metanning yorug'lik nuri ta'sirida xlorlanishi, erkin radikalli mexanizmida boradi va zanjir reaksiya deyiladi. Dastlab xlor molekulasi radikallarga ajraladi. Ya'ni,



Ortib qolgan $\text{Cl}^\bullet$ radikali boshqa molekulani turtib radikalga aylantiradi va zanjirli mexanizmida boradigan reaksiyani davom ettiradi. Agar metan (issiqlik) ta'sirida xlorlansa reaksiya portlash bilan borib, vodorod xlorid va ko'mir hosil bo'ladi:




Xlorlanish va bromlanish reaksiyalari yorug'lik nuri ta'sirida nisbatan oson boradi. Ftor bilan esa reaksiya portlash bilan boradi.




Shuning uchun bu reaksiya erituvchi ishtirokida olib boriladi.

Metan yod bilan reaksiyaga qiyin kirishadi. chunki reaksiya oxirigacha bormaydi. Hosil bo'lgan modda va boshlang'ich modda o'rtasida kimyoviy muvozanat vujudga keladi.




Demak bu reaksiyalarni quyidagi tartibda boradi deyish mumkin:




yod bilan bu reaksiya qaytar xarakterga ega.

2.Nitrolanish reaksiyasi.


Konsentrlangan kislotalar oddiy sharoitda ta'sir etmaydi. Qizdirilganda esa parchalanadi. Konovalov (1888) ma'lum sharoitda suyultirilgan nitrat kislotasi alkanlarni nitrolab nitrobirikmalar hosil qilishni ko'rsatdi.




Mexanizm: $HONO_2 \rightarrow HO^\bullet + NO_2^\bullet$






Bu reaksiyada asosiy mahsulot 2-nitropropan lekin kam miqdorda bo'lsada, 1-nitropropan ham hosil bo'ladi:




3. Sulfoxlorlash reaksiyasi yorug'lik nuri ta'sirida yoki qizdirilganda boradi va radikal o'rin olish mexanizmiga ega.




Mexanizmi:





4. Sulfooksidlanish reaksiyasi.




Alkansulfo kislotalar xosilalari (C₁₀-C₁₆) sintetik yuvish vositalari sifatida ishlatiladi.



5. Sulfolash reaksiyasi.



Tutayotgan sulfat kislota yuksak alkanlar bilan ta'sirlashganda sulfokislotalar hosil bo'ladi




Bunday reaksiyalar natijasida alkandagi vodorod atomi sulfogurux bilan almashinadi. C₁₂₋₁₈ bilan sulfokislotalar tuzlari yuvuvchi vositalar sifatida qo'llaniladi.

MA'RUZA № 3

ALKENLAR

Hozirgi vaqtda alkil almashingan etilenlar qatorida barqarorligini o'zgartirish sabablari to'g'risidagi bir fikr yo'q. Bo'lardan biri barqarorlik ortishini giperkonyugasiya effekti bilan tushuntiriladi.



Qo'sh bog'da metil radikallarlar qancha ko'p bo'lsa C-H va C=C giperkonyugasiya effekti shunchalik katta bo'ladi hamda alken shunchalik barqaror bo'ladi. Alkenlarni barqarorligini o'zgarishiga alternativ ifodasi bog'lar uzunligi va energiya farqlarida asoslanadi, bundagi qo'sh bog'lar sp^2 va sp^3 gibridlangan uglerod atomi bilan hosil bo'lgan. Sigma bog' C sp^3 -C sp^3 ga ko'ra sigma bog' C sp^2 -C sp^3 uzunroq va mustahkamroqdir. Masalan, propandagi sigma bog' C sp^2 -C sp^3 propandagi C sp^3 -C sp^3 bog'idan uzunroq va mustahkamroqdir. Shu gipotezaga asosan, alkenlarni termodinamik barqarorligi ularni molekulalaridagi C sp^3 -C sp^2 bog'lar soniga to'g'ri proporsionaldir va monoalkiletilenlardan tetraalkiletilenlarga o'tishda ko'tariladi. Shu ikkita alternativ ifodalardan uglerodni sp^3 va sp^2 gibridlanish xarakteriga bog'liq ravishda C-C sigma bog'ini uzunligi va energiyasini o'zgarish ifodasi qulayroqdir. Termodinamik barqarorlikni analogik ketma-ketligi alkinlarni uchlamchi bog' ostida mono- va di-alkil o'rin oluvchilarida ham kuzatiladi.

Demak olefinlar tuzilish va holat (qo'sh bog' holatiga qarab) izomeriga ega.


Gomologik qatori, izomeriyasi, nomlanishi

C ₂ H ₄	etilen	eten
C ₃ H ₆	propilen	propen
C ₄ H ₈	butilen	buten
C ₅ H ₁₀	amilen	penten va boshqalar.

(Gomologik qator a'zolari bir-biridan CH₂ guruh bilan farq qiladi). Etilen molekulasidagi hamma vodorodlar teng huquqli. Ularni turli o'rinbosarlarga almashinishidan har xil izomerlar hosil bo'ladi. Masalan,





., CH₂ = CH - CH₂ - CH₃ - etil etilen

CH₃ - CH = CH - CH₃ (simmetrik) dimetil etilen





2. Rasional nomenklaturada olefinlarning nomi radikallar nomiga etilen so'zini qo'shish



bilan hosil qilinadi. Masalan,



3.Jeneva (sistematik) nomenklaturasiga ko'ra olefinlar alkenlar deyiladi. -an qo'shimchasi -en ga almashtiriladi. Qo'shbog' saqlagan eng uzun zanjir asosiy zanjir deb olinadi va nomerlash qo'shbog'yaqin turgan tomondan boshlanadi. Masalan,



To'yinmagan uglevodorodlarning radikallari quyidagicha nomlanadi:



Izomeriyasi.

C_5H_{10} da uglerod skeleti va qo'sh bog' holatining izomeriyasi quyidagichadir:

1. $CH_2 = CH - CH_2 - CH_2 - CH_3$ T. amilen

R. propil etilen

S. penten-1

2. $CH_3 - CH = CH - CH_2 - CH_3$ T. amilen




R. metiletiletilen

S. penten-2

T. γ -amilen

R. Nosimmetrikmetiletilen

S. 2-metilbuten-1



T. β -izoamilen

R. Trimetil etilen

S. 2-metil buten-2

T. izoamilen

P. izopropiletilen

C. 3-metil buten-1

Alkenlarni olinishi.

Alkenlarni olishda turli xil usullari ichidan qo'sh uglerod-uglerodli bog' hosil qilishning uchta asosiy usulini ajratish lozim.


Ulardan biri tuyingan birikmani uglerodni visial atomlaridan ikkita guruxni eleminlashga asoslangan.

Alkenlarni sintezini boshqa usuli alkinlarda uchlamchi uglerod-uglerodli bog'ini ikkilamchi bog'gacha sis- yoki trans- konfigurasiyagacha stereospesifik qaytarishga asoslangan.


Uchinchi usul, karbonilli birikmalarni "aktiv metilen guruxga" ega bo'lgan birikmalar bilan ko'plab karbonil-metilenli kondensasiya reaksiyalariga asoslangan.

Quyidagi metodikada alkenlarni sintezini asosiy usullari keltirilgan.




1. Alkinlarni sis va trans- alkenlargacha qaytarish.



«Lindlar» katalizatori sifatida BaSO₄ yoki CaCO₃ da adsorbsiyalangan va xinolin bilan dezaktiviziyalangan palladiy bo'la oladi,




P-2-Ni- bu Ni(OAc)₂; NaBH₄; C₂H₅OH; NH₂CH₂NH₂ katalizatorlari, kolloidli nikeldir va bu katalizator nikel diasetatni natriy borgidrid bilan etanol-etilen diamid sistemasida qaytarish bilan olingan.




Olefinlar neft mahsulotlaridan va organik birikmalarni quruq haydash bilan hosil qilinadi.

2.Asetilen qatori uglevodorodlarni gidrogenlab etilen ugdevodorodlar olinadi:






Alkinlarni monogidroborlanishi va xosil bo'layotgan vinilboranlarni sirka kislotasi orqali parchalanishi.



3. Monogalogenli xosilalardan olinishi. Bu reaksiyalarda galogenli hosilaga natriy alkogolyat yoki ishqorning spirtidagi eritmasi ta'sir ettirib galoid vodorod ajralib chiqadi va qo'sh bog' hosil bo'ladi.

Galogenning ajralishi Zaysev qoidasiga binoan amalga oshadi:




MA'RUZA № 4 ALKINLAR

Uglerod-uglerod orasidagi uchbog'. Uchbog'ga birikish reaksiyalari: gidrogenlanish, gidrotasiyalash (Kucherov), galoidlarning va galoidvodorodlarning birikish reaksiyalari.

Asetilenning vodorod atomlariga tegishli reaksiyalari. Metallarga almashinish, karbonil guruhi bor birikmalar bilan birikish reaksiyalari. Asetilenning dimerlanishi (vinilasetilen) va siklotrimerlanish (benzol).

Asetilen qatori uglevodorodlari uchun uch bog' xos bo'lib, ular C_nH_{2n-2} umumiy formulaga ega.

To'yingan uglevodorodlarga nisbatan to'rtta vodorodga kam, olefinlarga nisbatan ikkita vodorodga kam. Dien uglevodorodlari bilan bir xil ya'ni izomerlar hisoblanadi. Alkinlar gomologik qatorining birinchi va asosiy vakili - asetilendir. Uning molekulasini tuzilishi quyidagicha.




Uch bog'ning tabiati uch bog' tutgan har bir uglerod atomi ikkitadan σ - va ikkitadan π -bog'ga ega ya'ni H-C va C-C bog'lari va C=C π -bog'lari.

Shuning uchun asetilen molekulasida jami bo'lib uchta σ -bog' va ikkita π -bog' mavjud.

σ -bog'larning tabiati sp-gibridlanishga ega, π -bog'lari esa erkin p-elektronlar hisobiga hosil bo'ladi.


Asetilen molekulasi fazoda chiziqli tuzilishga ega, valent burchagi 180° p-elektronlar buluti molekula chizig'i perpendikulyar ravishda joylashgan.




Uglerod uchinchi valent holatida uch bog'ning uzunligi 0,120 nm, uning hosil bo'lish energiyasi 838,3 kJ/mol.

Tuzilishi, izomeriya va nomenklaturasi.

Asetilenni fazoviy tuzilish modeli quyidagicha bo'ladi.






T. Asetilen

R. asetilen


S. etin



T. Allilen

R. metilasetilen


S. propin



T. krotilen

R. dimetil asetilen




S. butin-2



3-metil butin-1 yoki Isopropil asetilen

Jeneva nomenklaturasi xuddi olefinlardagi singari bo'lib, -in qo'shimchasi qo'shiladi va uch bog'ga yaqin tomondan nomerlanadi.



Sistematik nomenklatura bo'yicha asetilenli uglevodorodlarni alkinlar deb ataladi. Asosiy halqa tarkibiga albatta uchlamchi bog' kiritiladi va u raqam orqali aniqlanadi. Agar molekulada qo'sh bog' hamda uchlamchi bog' bo'lsa raqamlash qo'sh bog' turgan tomondan boshlanadi.






(etilasetilen)

(dimetilasetilen)

Rasional nomenklatura bo'yicha alkinli birikmalarni asetilen hosilalari deb ataladi. To'yinmagan radikallar trivial yoki sistematik nomlanishga ega.



Alkin uglevodorodlar izomeriyasi halqani tuzilishi va unda uchlamchi bog' holati bilan aniqlanadi.




Asetilen molekulasidagi uch bog' tutgan uglerod atomidagi vodorodlar kislotalik xarakteriga ega. Elektronlarini uch bog'ga berib oson proton ko'rinishida uziladi, shuning uchun ham kislotalik xarakteriga ega.


Alkinlarni olinishi.

Sanoatda va laboratoriyada asetilenni quyidagi usullar bo'yicha olinadi.



1. Yuqori haroratda



2. Metanni yuqori haroratda parchalash




3. To'yingan uglevodorodlarni krekinglash reaksiyalarida.





Metanni pirolizlanish reaksiyasi 1400°C da asetilen va vodorod aralashmasi hosil bo'ladi.

4. Kalsiy karbidga suv ta'sir ettirish yo'li bilan asetilenning olinishi.




Laboratoriyada olinish usullari.




5. Digalogenli birikmalardan:



6. Asetilenidlardan olinishi:



7. Aldegid va ketonlardan olinishi (A.E. Favorskiy reaksiyasi):



Fizikaviy xossalari.

Molekulasida ikkitadan to'rttagacha uglerod atomlariga ega bo'lgan alkinlar-gazlar, C_5H_8 boshlab suyuqliklar, $\text{C}_{16}\text{H}_{30}$ dan yuqorilari esa qattiq moddalardir. C_{16} va undan yuqorilari qattiq moddalardir.

Nomlanishi	Formula	$t_{\text{suyuq}}, ^\circ\text{C}$	$t_{\text{qay}}, ^\circ\text{C}$	d_{4}^{20}
Asetilen (etin)	$\text{HC}\equiv\text{CH}$	-81,8	-84,0	0,6181*
Metilasetilen (propin)	$\text{HC}\equiv\text{C}-\text{CH}_3$	-101,5	-23,2	0,7062**
Etilasetilen (butin-1)	$\text{HC}\equiv\text{C}-\text{C}_2\text{H}_5$	-125,7	+8,1	0,6784

<i>sim</i> m-Dimetilasetilen (butin-2)	$\text{H}_3\text{C}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{CH}_3$	-32,3	+27,0	0,6510
Propilasetilen (pentin-1)	$\text{HC}\equiv\text{C}-(\text{CH}_2)_2-\text{CH}_3$	-90,0	+40,2	0,6900
Metilasetilen (pentin-2)	$\text{H}_3\text{C}-\text{C}\equiv\text{C}-\text{C}_2\text{H}_5$	-101,0	+56,1	0,7107
Butilasetilen (geksin-1)	$\text{HC}\equiv\text{C}-(\text{CH}_2)_3-\text{CH}_3$	-131,9	+71,3	0,7155

Bularning barchasi suvda yomon eriydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Uch bog' IQ-spektrda $2300-2100\text{ cm}^{-1}$ da chiqadi. UB-spektrlarida 170-190 nm da yutilish maksimumlariga ega.

Kimyoviy xossalari.



Alkinlar birikish, almashinish, oksidlanish, polimerlanish va kondensasiyalanish (karbonilli birikmlar bilan) reaksiyalariga kirishadi.

I. Birikish reaksiyalari.

Bu reaksiyalar bosqichma-bosqich boradi: reagentni bitta molekulasini biriktirganda uchlamchi bog' ikkilamchi bog'ga o'tadi, Yana biriktirilgandan so'ng birlamchi bog'ga o'tadi. Alkinlar molekulasida uglerod atomlari alkenlarga ko'ra bir-biriga yaqin joylashgan va yuqori elektrmanfiylikka ega. Uglerod atomini elektrmanfiyligi uning valent holatiga bog'liq. Shuning uchun π - elektronlar uglerod yadrosiga yaqin turganda faolligi pasayadi. Shu bilan birga alkinlar nukleofil birikish reaksiyalariga ham kirishadi.

1. Gidrogenlash.


Alkinlarni qaytarilganda oldin alkenlar, so'ng alkanlar hosil bo'ladi.




2. Galogenlash.

Bu reaksiya etilenlarga nisbatan sekinroq o'tadi. Reaksiya bosqichma-bosqich boradi.


1.



2.




3. Galoid vodorodning birikishi Markovnikov qoidasiga binoan boradi.





4. Gidratlanish reaksiyasi (Kucherov). Alkinlarga suvning, kislotalarning birikishi ham


Markovnikov qoidasiga binoan amalga oshadi.





Asetilen gomologlaridan ketonlar hosil bo'ladi.






5. Oddiy efirning hosil bo'lishi.



6. Murakkab efirning hosil bo'lishi.




II. Kondensasiya reaksiyalari.




III. Siklizasiya reaksiyasi.

1.




(chiziqli polimerlanish yoki dimer yoki trimerlanish)


2. Siklik polimerlanish (Zelinskiy reaksiyasi).



3.




4. Vinilasetilenga HCl biriktirilganda, xlorbutadien (xlorpren) ni hosil qiladi.




Xlorpren sintetik kauchuk olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

5. Asetilen 250°S da mis katalizatori ustidan o'tkazilsa, polimer modda - kupren hosil bo'ladi.





6.




Kupren hech nimada erimaydigan sarg'ish rangli yengil kukundir.

IV. Almashinish reaksiyalari.

Asetilen metallar bilan o'rin almashinib, asetilenidlar hosil qiladi. Ular tuz holdagi moddalar bo'lib, rangli va portlovchi moddalardir.



3. Ammiak eritmasidagi asetilenga kumush oksidini ta'sir ettirsa kumush asetilenid hosil bo'ladi.



Quruq holdagi asetilenidlar bilan juda ehtiyot bo'lib ishlash kerak, chunki ular portlovchilardir.

MA'RUZA № 5 ALKADIENLAR

Molekulasida ikkita qo'shbog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar - dien uglevodorodlari yoki diolifenlar deb ataladi. Umumiy formulasi $C_n H_{2n-2}$

Dien uglevodorodlarining uch xil tipi uchraydi:

I. $C_n H_{2n-2}$ kuchlangan yoki kumilirlangan dien uglevodorodlari

II. $CH_2 = CH - CH = CH_2$ tutashgan yoki konyugirlangan

III. $CH_2 = CH - CH_2 - CH_2 - CH = CH_2$ ajratilgan yoki izolirlangan dien uglevodorodlari

I turdagilari qo'sh bog' ta'sirida juda faol bo'lib, tabiatda erkin holda uchramaydi.

II o'zining xususiy xossalriga va etilen uglevodorodlariga o'xshash xossalarga ega.

III etilen uglevodorodlariga juda o'xshash tabiatda kam uchraydi (kauchuklar tarkibida).

Nomlanishda asosan rasional va trivial nomenklatura qo'llaniladi (masalan, divinil, izopren va boshqalar).

Sistematik nomenklaturada etilen uglevodorodlaridagi -en qo'shimchasi -dien ga almashtiriladi.

$CH_2 = CH - CH = CH_2$ butadien-1,3 S.



(divinil) R.

$CH_2 = \underset{CH_3}{\underset{|}{C}} - CH = CH_2$ 2-metilbutadien-1,3 S.



(izopren) R.

Olinish usullari.


1. Termokatalitik digidrogenlash.





2. Lebedev divinilni etanoldan sintez qilib oldi, bu sintez sanoat ahamiyatiga ega.




yoki to'g'ridan-to'g'ri aldoldan olinishi:




3. Uch gologenli hosilalardan olinishi.




5. Glikollarning degidrotasiyalanishidan dienlarning olinishi.



6. Asetilen va formaldegiddan:



7. Uchinchi tipdagilarini olinishiga misol:



Fizikaviy xossalari.

Gomologik qatorlarga tegishli fizik xossalari dien uglevodorodlarida ham kuzatiladi, divinil gaz, izopren va boshqalari suyuqliklar. Suvda erimaydi, organik erituvchilarda eriydi.

Qo'sh bog'li birikmalar IQ-spektrida $1650-1600\text{ cm}^{-1}$ intensiv yutilish chiziqlari kuzatiladi.

Butadienning UB-spektrida 217 nm maksimum yutilish kuzatiladi. Qo'sh bog'lar sonining oshishi yutilish chiziqlarini ko'rinarli soha tomon siljitadi.

Ba'zi bir dienlarning fizik xossalari 7-jadvalda keltirilgan.

Alkenlar gomologik qatoriga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar dien uglevodorodlarda ham kuzatiladi.

7-jadval. Ba'zi dien uglevodorodlarning fizikaviy xossalari.


Nomlanishi	Formulasi	T _{qay.}	T _{suyuq}	D ₄ ²⁰
Allen	CH ₂ =C=CH ₂	-34.3	-153.2	1.7870
Metiallen	CH ₃ -CH=C=CH ₂	-10.3	-136.2	0.6940
Divinil	CH ₂ =CH-CH=CH ₂	-4.5	-108.9	0.6270
Pipyerilen	CH ₃ -CH=CH-CH=CH ₂	42	-87.5	0.6760
Izopren	CH ₂ =C(CH ₃)-CH=CH ₂	34.1	-145.9	0.6810
Diizoprenil	CH ₃ CH ₂ =C-C=CH ₂ CH ₃	69.6	-76.1	0.7260
Divinilmetan	CH ₂ =CH-CH ₂ -CH=CH ₂	25.9	-48.3	0.6610

Kimyoviy xossalari.

Molekulasida bog'lanmagan qo'shbog'larga ega bo'lgan dienlar oddiy alkanlar xossalari ega. Shu bilan birga qo'shbog'lar bog'langan dienlar yuqori reaksiya qobiliyatiga ega va bir qator xususiyatga ega. Lekin ikkalasi uchun ham birikish reaksiyasi xarakterlidir.


Birikish reaksiyasi.

Vodorodni, galogenni, galogenvodorodni birikishi faqatgina qo'shbog'larga birikib, balki chetki uglerod atomlariga ham birikadi




Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki birikish reaksiyasi moddalarning tabiatiga bog'liq ravishda har xil maxsulotlar hosil bo'ladi. 1,2-holatga birikishi hech qanday ifodani talab etmaydi. Chunki bu alkenlarning umumiy xossalari kelib chiqadi. Birikish natijasida 1 ta yoki 2 ta qo'shbog'lar uziladi. 1,4-xolatida esa birikish boshqacha o'tadi. Ma'lumki dien molekulasi ikkita qo'shni qo'shbog'lar ta'sirlashadi va natijada yagona π -elektron buluti hosil bo'ladi.

Xujum qilayotgan reagent ta'sirida bunday sistema qutblanadi va elektron zichlik qayta taqsimlanadi. Natijada molekula qarama-qarshi tomonlarida bog'lanish dinamik effekti ta'sirida zarrachalar zaryadlari paydo bo'ladi.



Molekulani shu tomonlariga reagentni zaryadlangan zarrachalari intiladi.



Shunday qilib dienlarga birikish natijasida oldin ikkita qo'shbog' uziladi. So'ng reagent atomlari chekkadagi to'yinmagan uglerod atomlariga birikishi sodir bo'ladi. C₂-C₃ atomlari orasida qo'shbog' paydo bo'ladi.

MA'RUZA № 6

SIKLOALKANLAR

Sikloalkanlar, siklning hosil bo'lishi va siklopropan, siklobutan, siklopentan, siklogeksan misolida siklning nisbatan mustahkamligi. Siklogeksan komformasiyasi "kreslo" va "vanna" tipidagi strukturalar. Kislородli hosilalari: siklogeksanol, siklogeksanon. Ikki o'rinbosarlar izomeriyasi. Siklogeksan hosilalari. "Dien sintezi", siklogeksan hosilalarini aromatlash. Tayanch iboralar: sikl, sikloalkan, sikloparafin, kreslo, vanna, dien sintezi, karbosiklik. Ochiq zanjirli tuyingan uglevodorodlardan farqli ravishda berk zanjirli tuyingan uglevodorodlar ham mavjud. Oz xossalari bilan oddiy to'yingan uglevodorodlarni eslatadi va shundan ularning nomlanishi kelib chiqadi - sikloalkanlar. Sikloalkanlar gomologik qatorining umumiy formulasi C_nH_{2n} ya'ni sikloalkanlar etilenli uglevodorodlarga izomerdir. Molekulasi faqat uglerod atomlaridan tashkil topgan xalqali (siklik) birikmalardir. Alisiklik uglevodorodlar to'yingan va to'yinmagan bo'ladi. Ali - alifatik uglevodorodlarga o'xshash degani. To'yinganlarining xossalari parafinlarnikiga o'xshash bo'lgani uchun sikloparafinlar deyiladi. Bu uglevodorodlar bir nechta metilen guruhlaridan iborat xalqalarga ega bo'lgani uchun polimetilen uglevodorodlar deyiladi.


Ular quyidagilarga bo'linadi:

1. C_nH_{2n} – sikloparafinlar
2. C_nH_{2n-2} – sikloolefinlar
3. C_nH_{2n-4} – siklodienlar
4. C_nH_{2n-6} – siklotrienlar


Bundan tashqari yadrolarga qarab boshqacha klassifikasiyalanadi:

1. Bir yadroli - monosiklik
2. Ikki yadroli - disiklik
3. Uch yadroli - trisiklik
4. Ko'p yadroli - polisiklik


Sikloparafinlar.



siklopropan
(trimetilen)



siklobutan
tetrametilen



siklopentan
pentametilen


Organik kimyoda aytib o'tilgan sikloalkanlarni struktura formulalarini ko'pincha C va H raqamlarini qo'ymay oddiy geometrik shakllar bilan ko'rsatiladi.




Izomeriya.

Sikloalkanlar uchun siklobutandan boshlab ba'zi struktura izomeriyalar xarakterlidir. Ular quyidagilar:

a) xalqadagi uglerod atomlari soni bilan





(этилциклопропан),




(метилциклобутан);

б) o'rin oluvchilardagi uglerod atomlari soni bilan



в) xalqadagi o'run oluvchi xolati bilan



Sikloalkanlar uchun alkenlar bilan sinflararo izomeriyasi ham xarakterlidir.

Alisiklik uglevodorodlarning kichik xalqalilari katta xalqalilaridan farq qilib, har xil barqarorlikga ega. Buni ularning fazoviy tuzilishi orqali tushintirib berganlar.

Fazoviy tuzilishi yoki stereokimyosiga ko'ra to'yingan uglevodorodlarda valent burchagi $109^{\circ}28'$ bo'lib tetraedr tuzilishiga ega, sikloparafinlarda valent burchagi 60° dan boshlanadi. Xalqalarning kattalashishi bilan valent burchagi tetraedrik burchakka yaqinlashadi va bu valent burchaklar molekulaning kimyoviy xossalariga ta'sir qiladi. Normal valent burchakga yaqinlasha borib, barqarorligi orta boradi.

1885 yilda Nemis kimyogari A.Bayer xalqaning kuchlanish nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga ko'ra og'ish burchagi qancha katta bo'lsa xalqaning kuchlanishi ham shuncha katta bo'ladi.

Kuchlanish o'lchovi qilib quyidagi formulani taklif qilgan:

$$\alpha = \frac{109^{\circ}28' - d}{2} = 24^{\circ}44' \quad \alpha = \frac{2d(1-2)}{n}$$

n - zanjir soni,

d - og'ish burchagi

d = 60° siklopropan +24,44

d = 90° siklobutan +9,44

d = 108° siklopentan +0,44


siklogeksan -5°,16

siklogeptan -9,33

siklooktan -12,51.


Bayerning nazariyasiga ko'ra olingan ma'lumotlar 3 va 4 a'zoli xalqaning barqarorligi va besh a'zoli xalqaning barqarorligini tushuntirib beradi. Lekin olti a'zoli siklogeksanni barqarorligini tushuntirib bera olmaydi.

Buni tushuntirishda molekulaning fazoviy tuzilishni aniqlash kerak. Katta sikllar bir tekislikda yotmaydi (siklopropanon bir tekislikda) buni Bayer hisobga olmagan. Aniqlashlariga ko'ra siklogeksan oddiy sharoitda bir-biriga o'tib turadigan ikki xil geometrik shaklga ega, ya'ni "vanna" va "kreslo".



Sovitilsa "vanna", isitilsa "kreslo" shakliga o'tadi.


Molekulaning 6 - o'qi atrofida aylanishga konformasiya deyiladi. Yuqoridagi shakllar konformasiya shakllari deb ataladi.



Siklogeksandagi vodorod atomlarining molekula tekisligiga perpendikulyar (aksial) hamda molekula tekisligi bo'yicha (ekvatorial) joylashishi mumkin.

Siklopentanda molekulaning bir uchi tekislikdan ko'tarilgan bo'ladi. Shuning uchun siklogeksan barqaror bo'lib, kreslo shaklini yoki vanna shaklini oladi, siklopentan esa bunday shakllarni hosil qila olmaydi.

Sikloparafinlarda geometrik izomeriya ham uchraydi.




Xalqada 2 ta o'rin oluvchilar bo'lganda har xil uglerod atomlarida geometrik sis- va trans-izomeriyasi mavjud bo'lishi mumkin, bundan tashqari optik izomeriya ham. Optik izomeriya molekulada simmetriya maydoni bo'lmagandagina namoyon bo'ladi.

Ko'rsatilgan misollardagi metil guruxlari xalqaning tekisligi 1 va 2 tomonda bo'lishi mumkin.


Ma'lumki, sis- va trans- izomerlar modellarni bir-biri bilan solishtirilganda ular to'g'ri kelmaydi. Shuni aytib o'tish lozimki, siklik birikmada sis- va trans- dan tashqari oyna izomeriyasi ham mavjud bo'lishi mumkin. Ularni modellarini bir-biriga solishtirganda ular to'g'ri keladi. Sis- va trans- izomerlar uchun bunday solishtirish xususiyati mutlaqo bo'lmaydi. Bundan tashqari sikloalkanlar qatorida burilish izomeriyasi ham katta ahamiyatga ega.

Olinish usullari.


1. a) Digalloyid hosilalardan olinishi (uch, to'rt, besh va olti a'zoli sikllari hosil qilinadi).





б) litiy amalgamasini 1,4- dibrom butanga ta'sir ettirilganda siklobutan hosil bo'ladi




2. Ikki asosli karbon kislotalarning kalsiyli tuzlarini qizdirib sikloparafinlarni olinishi.




3 Digalogenli xosilalarga dinatriyli va mononatriyli malon efiri ta'sir ettirib olinadi.




4. Ikki asosli kislotalarning murakkab efirlarini alkogolyatlar ta'sirida kondensatlash (Diman usuli).




5. Molekulasida galogen atomi bor karbonil birikmalarni degidrogalolash.




6. Ba'zi diketonlardan bir molekula suv tortib olib, to'yinmagan siklik birikmalar xosil qilish mumkin.




7. Ko'p a'zoli siklik ketonlar xosil qilish uchun auiloin usulidan (Shtal Preluf) foydalaniladi. Ikki asosli kislota efirlari natriy metalli ishtirokida qaynatilsa, molekula ichki kondensatlanadi.



8.Dien sintezi orqali olinishi:



9. Benzol va uning gomologlarini gidrogenlash (N.Zelinskiy usuli).



Fizikaviy xossalari.

Birinchi ikki a'zosi gaz holida moddalar (siklopropan, siklobutan), C₃ dan C₆ gacha bo'lganlari suyuqliklar, C₆ dan yuqorilari qattiq moddalardir. Qaynash haroratlari uglerod soni teng keladigan to'yingan uglevodorodlardan sal yuqori. Suvda barchasi erimaydi.

Sikloalkanlar alkanlarga ko'ra qaynash va erish xususiyatlari yuqori temperaturaga va yuqori zichlikka ega. Bir xil tarkibda sikli qanchalik katta bo'lsa sikloparafin qaynash temperaturasi ham katta bo'ladi. Sikloalkanlar suvda erimaydi, lekin organik erituvchilarda eriydi. Ba'zi sikloalkanlar fizik xossalari jadvalda keltirilgan.




4-jadval. Sikloalkanlarning ba'zi bir fizikaviy xossalari.

Birikmalari	Tqayn	Tsuyuq	D ²⁰ ₄
Siklopropan	-126,9	-33	0,688
Metil siklopropan	-177,2	0,7	0,6912
Siklobutan	-80	13	0,7038
Metil siklobutan	-149,3	36,8	0,6931
Siklopentan	-94,4	49,3	0,7460
Metil siklopentan	-142,2	71,9	0,7488
Sillogeksan	6,5	80,7	0,7781



Kimyoviy xossalari.




Sikloparafinlar kimyoviy xossalari jihatidan xuddi to'yingan alkanlarning xossalariga o'xshashdir. Faqat siklopropan va siklobutanni kimyoviy xossalari to'yinmagan uglevodorodlarning xossasini eslatadi.

1. Vodorodning ta'siri:




2. Galogenning birikishi:






3. Hidrohalogenlash. Sikloparafin va uning gomologlari galogen vodorodlari bilan ta'sirlashganda sikl uziladi.




Reaksiya Markovnikov qoidasiga asoslanib amalga oshiriladi. Boshqa sikloparafinlar galogenvodorodlar bilan ta'sirlashmaydi.


4. Degidrogenlash. Optik xalqali birikmalarni katalizatorlar ishtirokida qizdirilganda ular degidrogenlanadi va aromatik uglevodorodlar hosil bo'ladi




5. Oksidlanish reaksiyasi:




6. Zelinskiy-Kazanskiy reaksiyasi. Xalqalarning bir-biriga o'tishi:



7. Halqani toraytirish usuli .



8. Xalqani kengaytirish usuli.



MA'RUZA № 7


AROMATIK UGLEVODORODLAR

Benzol xalqasining aromatik xarakteri. Benzolni galoidlash, nitrolash. Bu jarayonlarning elektrofil xarakteri. Elektrodonor va elektroakseptor o'rinbosarlar. Ularning yo'naltirish ta'siri. Toluolni xalqasi va yon zanjirini xlrlash. Benzol xalqasida birikish reaksiyalari: gidrogenlash, galoidning birikishi. Dialkil (ikkita o'rinbosir bo'lgan) benzolning izomeriyasi. Ko'p xalqali aromatik birikmalar to'g'risida tushuncha: difenil, naftalin (izomeriyasi va xossalari), antrasen, fenantren (steroidlar skeleti tuzilishining asoslari), Xyukkel qoidasi. Benzol bo'lmagan aromatik sistemalar to'g'risida tushuncha (tropoxen, ferrosen).

Aromatik birikmalar deb - benzol va benzol tabiatiga ega bo'lgan karbosiklik birikmalarga aytiladi. Benzol aromatik birikmalarning birinchi vakili. Aromatik so'zi - xushbo'y hidli, ko'pchilik aromatik birikmalar xushbo'y hidga ega (benzaldegid, vanilin).

Benzol molekulasiga ko'ra u juda to'yinmagan birikmaga o'xshashligiga qaramay, oddiy sharoitda to'yinmagan uglevodorodlarga xos birikish reaksiyasiga kirishmaydi: galogenlarni biriktirmaydi, kaliy permanganat eritmasini rangsizlantirmaydi.

Benzol uchun ko'proq to'yingan uglevodorodlarga xos bo'lgan o'rin olish reaksiyalari xarakterlidir. Benzoldagi hamma vodorod atomlari teng qiymatlidir. Benzolning struktura formulasini aniqlashda turli variantlar bo'lib, shulardan kamchiliklari bo'lsada Kekuli formulasi ancha qulay bo'lganligi tufayli qoldirildi.




Benzol gomologik qatori uchun umumiy formula C_nH_{2n-6} ya'ni to'yingan uglevodorodlarga nisbatan 8 ta vodorod kam. Benzol to'yinmagan siklik tuzilishli birikma.


Benzolning tuzilishi. Benzol xalqasidagi hamma vodorodlar teng qiymatli va mono- almashingan benzolda izomerlar yo'q. Ikkita vodorodi almashingan benzolda uchta izomer mavjud bo'lib, ular quyidagicha (orto - o, me



Kekulining formulasi bo'yicha benzolda qo'sh bog' va oddiy bog' bir-biriga o'tib turadi.



Bundan ko'rinadiki, benzolda aniq oddiy bog' va qo'sh bog' yo'q ekan va uglerodlardagi elektronlar fazoda tutashib yaxlit π -elektronlarni hosil qiladi. Fizika-kimyoviy tekshiruvlar natijasida aniqlanishicha benzol quyidagi tuzilishga ega:





1. Benzol molekulasida uglerod atomlari teng burchakli olti burchakni tashkil qiladi. unda C-C

orasidagi masofa bir xil $1,40 \text{ \AA}$.

Oddiy $\text{C}-\text{C}$ $1,54 \text{ \AA}$

Qo'sh bog' $\text{C}=\text{C}$ $1,34 \text{ \AA}$.

2. Hamma uglerod va vodorod atomlari bir tekislikda joylashgan. Har bir uglerod atomi uchtdan δ -bog'iga ega (ya'ni ikkitasi ikkita qo'shni uglerod bilan bittasi vodorod atomi bilan) va bitta π -bog'iga ega. π -bog'i umumiy yaxlit elektron bulutiga ega bo'lib, molekula tekisligiga perpendikulyar joylashgan. Ya'ni:



Aromatiklik qoidasi. Xyukkel tomonidan aromatiklik qoidasi yaratilib bunga ko'ra: modda aromatik bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Molekulada π -elektron buluti bir xil taqsimlangan.


2. $(4n+2)$ yaxlit elektronlarga ega bo'lgan monosiklik tuzilishga ega bo'lgan birikmalar (yassi to'g'ri burchakli olti burchak) $n = 0, 1, 2, 3$ va boshqalar. π -elektronlar soni 6, 10, 14 va boshqalar bo'lishi mumkin (n xalqa soni).

3. To'yingan siklik tuzilishli, fazoda tekislikda joylashgan.


$n=1$. $(4 \cdot 1 + 2) = 6$




$n=2$. $(4 \cdot 2 + 2) = 10$



$n=3$. $(4 \cdot 3 + 2) = 14$




Antrasen



pirrol


$4e(\text{C}) + 2e(\text{N}) = 6$,




piridin

$5e(\text{C}) + 1e(\text{N}) = 6$


Gomologik qatori va izomeriyasi.




benzol




toluol




etil benzol




propil benzol




butil benzol




propil benzol




izopropil benzol
yoki kumol




1,2,3-trimetil benzol




1,2,4- trimetil
benzol




1,2,5- trimetil
benzol



1-metil,2-etil
benzol yoki
o- etil toluol




m- etil toluol



p- etil toluol

Agar yon zanjirda ikkita va undan ortiq uglerod atomlari almashingan bo'lsa u albatta izomerlarga

ega.



Aromatik radikallar umumiy holda arillar (Ar) deyiladi.

C_6H_5 - fenil radikali

$C_6H_5-CH_2$ - benzil


$C_6H_5-CH=$ - benzilidin

$C_6H_4=$ - fenilen

Olinish usullari.


1.Toshko'mir smolasidan qayta ishlash natijasida.

2.Neft va gaz mahsulotlarini degidrogenlash natijasida:




yoki alifatik uglevodorodlarni degidrogenlab.


3.Asetondan:




4.Vyurs - Fittig reaksiyasi orqali:




5.Fridel-Krafts reaksiyasi asosida faqat benzol gomologlarini olinadi:




6. Pirrol hosilalari sianid kislota yoki nitrillar va xlorid kislota ta'sirida aldegid hamda ketonga aylanadi.




7. Azot atomida alkil gruppasi bo'lmagan pirrol birikmalari magniy - organik birikmalar bilan reaksiyaga kirishib pirrol magniygologanidlarni hosil qiladi.




8. Vodorod ta'sirida tetragidropirrol-tirrogidik hosil bo'ladi.




9. Malein angidridni biriktirib, 2-pirril qahrabo kislotaga aylanadi.




10. Pirrol hosilalari gidroksilaminning spirtidagi eritmasi ta'sirida 1,4 diketanlarning dioksimiga aylanadi.



11. Alkilpirrollar qizdirilgan nay orqali o'tkazilsa, qayta gruppalanib piridin halqasi hosil bo'ladi.




12. Pirrol azonlanganda imindisirka kislota hosil bo'ladi.




Tiofen.


1. Tiofen, xlor bilan reaksiyaga kirishadi.




2. Tiofenning sulfat kislota bilan reaksiyasi.




3. Nitrolanish reaksiyasi.




4. Alkillash reaksiyasi.




5. Asillanish reaksiyasi.




6. Tiofenni xlormetillash.



7. Tiofenni simoblanishi.



8. Biriktirib olish reaksiyasi.




BIR GETEROATOMLI OLTI A'ZOLI GETEROSIKLIK BIRIKMALAR


Piridin.

1. Akrolein ammiak bilan kondensatlanganda β - pikolin xosil bo'ladi.


β



2. To'yingan aldegidlarga ammiak ta'sir ettirib olish .




3. Asetilen va ammiakdan 2-metil - 5 - etilpiridin xosil qilish mumkin.



Piron.


1. Xelidon kislotani dekarboksillash yo'li bilan olish mumkin.




Kimyoviy xossalari.

Piridin.


1. Nitrat kislota ta'siri.




2. Galogenlar ta'siri.




3. Sulfat kislota bilan reaksiya .




4. Oksidlanishi .




5. Platina ishtirokida vodorod ta'sirida qaytarilishi .




6. Piridinni natriy amid bilan qizdirilsa α va γ - aminopiridinlar hosil bo'ladi .



7. Piridin bug'iga 250-300 da quruq KOH ta'sir ettirilsa, α - oksipiridin hosil bo'ladi. (Chichibabin reaksiyasi).




8. Piridin galogenalkillarni biriktirib olib galogenalkillar hosil qiladi.




Piron.


1. γ - piron ishqorlar tasirida parchalanadi.



2. Piroksan tuzining hosil bo'lishi .




3. Pironning metilyodid bilan reaksiyasi .




Bir necha geteratomi geterasikllarning olinishi



1. Asetomid va α - bromasetofenonlarning o'zaro ta'siridan oksazol hosilalari hosil bo'ladi.




2. Benzoilaminoasetofenonning qayta guruxlanishidan xam oksazol xosilalari xosil bo'ladi .




3. Tiazollar tioamidlarga xlorketanlarni yoki α -xloraldegidlarni ta'sir ettirib olinadi.



4. Pirazol dizometan va asetilendan quyidagi reaksiya bo'yicha olinadi.




5. Imidazollar 1,2 - dikarbonil birikmalarga ammiak va aldegidlar ta'sir ettirib olinadi.




Kimyoviy xossalari


1. Imidazolning galogenlar bilan reaksiyasi.



2. Imidazalning nitrolanishi.





3. Gistidinning dekarboksillanishi.





UGLEVODLAR

Uglevodlar o'simliklarda va hayvonlar organizimida ko'p bo'ladi. Ular trikarbonatda boradigan proseslarda juda muhim rol o'ynaydi. Ular uchta katta gruppaga bo'linadi: monosaxaridlar, oligosaxaridlar, polisaxaridlar. Monosaxaridlar yoki monozalar uglevodlarning eng oddiyi hisoblanadi. Ular gidroliz reaksiyasiga kirishmaydilar. Umumiy formulasi $C_pH_{2p}O_p$. Uglerod atomining soniga qarab ular tetroza ($C_4H_8O_4$), pentoza ($C_5H_{10}O_5$), geksoza ($C_6H_{12}O_6$) larga bo'linadi. Bularning ichida ko'proq tarqalgani geksozalardir, masalan, glyukoza va fruktoza. Ularning empirik formulasi bir xil bo'lib, tuzilishi formulalari jihatidan farqlanadi:



Monosaxaridlar molekulasida aldegid gruppasi bo'lsa monosaxarid nomining oldiga "aldo", karbonil gruppasi bo'lsa "keto" so'zi qo'shib o'qiladi, masalan:



Monosaxaridlarning ximiyaviy xususiyatini o'rganayotgan vaqtda, reaksiyaga kirishayotgan moddaning tabiatiga qarab, monozalar ochiq zanjir holda (oksidlanganda, qaytarilganda, gidroksiamin bilan reaksiyaga kirishganda va hokazo) yoki sikil holda (alkillash va asetillash) reaksiyalariga kirishishga e'tibor berish lozim. Monosaxaridlar kristall holatda sikil (poluasetal) formada bo'ladi.

Har qaysi monosaxaridning sikilli formasiga ikkita stereo izomer (monosaxaridlarning α va β formalari) muvofiq keladi. Barcha monosaxaridlar va ko'pchilik disaxaridlar uchun xos bo'lgan mutarotatsiya hodisasiga sabab ana shu stereoizomerlarning karbonil forma orqali bir-birga aylanishidir.

Ikki molekula monosaxariddan bir molekula suv ajralib hosil bo'lgan birikmalar disaxaridlar deyiladi. Disaxaridlar bog'lanish xususiyatlariga qarab, ikki gruppaga ajraladi.


Birinchi gruppaga bir monosaxarid molekulasidan karbonil gidroksili, boshqa monosaxarid molekulasidan spirt gidroksilining vodorod atomi ajralib suv molekulasini hosil qilish natijasida olinadigan disaxaridlar kiradi. Birinchi gruppada disaxaridlarning vakili maltoza- ikkita glyukoza molekulasining birikishidan hosil bo'lgan. Bunday disaxaridlar molekulasida erkin karbonil gidroksili borligi uchun tautomer o'zgarishga uchraydi va karbonil gruppasiga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Ikkinchi gruppaga ikkita monosaxarid molekulasidagi karbonil gidroksilidan bir molekula suv ajralib hosil bo'ladigan disaxaridlar kiradi. Bunday saxaridlar molekulasida erkin

karbonil gidroksili yo'qligi uchun ular tautomer o'zgarishga uchramaydi hamda karbonil gruppasiga xos reaksiyalarga krishmaidi.

Disaxaridlarning suvdagi eritmasi mineral kislotalar katalizatorligida qaynatilsa oson gidrolizlanib, monosaxaridlar hosil qiladi. Polisaxaridlarga kraxmal, glikogen hamda sellyuzalar kiradi. Bu birikmalar molekulasida maltoza tipidagi glyukoza qoldig'i bo'ladi. Kraxmal sellyulozdan molekulyar og'irligi kichikligi, bilan farq qiladi. Kraxmal bug'doy, kartoshka, donli o'simliklar tarkibida bo'ladi.


Sellyuloza o'simlik xujayra qobig'ining tarkibiga kirib, erkin xolda uchramaydi. Toza sellyuloza paxta tolasining 80-95% ini tashkil qiladi. Sellyuloza suvda, efirda, spirtlarda erimaydi, unga suyultirilgan kislota va ishqorlar ta'sir etmaydi. Sellyuloza faqat Shveysar reaktivida, rux xloridning xlorid kislotasidagi eritmasida, konsentralangan sulfat kislotasida eriydi.

Sellyulozani uch atomli spirt $[C_6H_7O_2(OH)_3]_n$ sifatida qarash mumkin. Shuning uchun kislotalar bilan reaksiya kirishib, murakkab efirlar hosil qiladi. Sellyulozaning nitrat kislotasi bilan hosil qilgan murakkab efiri trinitrosellyuloza texnikada ahamiyatga ega.





Nitrosellyuloza tutunsiz porox, kinoplyonkalar olishda ishlatiladi.

Sellyulozaning sirka kislota bilan hosil qilingan efiri triasetat sellyuloza asetonda eritilib, undan suniy shoyi va laklar olinadi. Aetilsellyulozadan elektrotexnikada izolyator sifatida foydalanadigan sinmaydigan oyna, yonmaydigan kinolentalar tayyorlashda ishlatiladigan sellon degan plastik massa olinadi.




Monosaxoridlar (Monozalar) olinishi.

1. Ikki molekula chumoli aldegidni $Ca(OH)_2$ ishtirokida aldol kondensatlanganda glikol aldegid hosil bo'ladi.




Glikol aldegid bir mol chumoli aldegidni biriktirib olib, gliserin aldegidni hosil qiladi.


v) Huddi shu tarzda 4, 5 va 6 molekula (giliserin) aldegidni birikishi yoki ikki molekula gliserin aldegidning kondensatlanishidan geksozalar hosil bo'ladi.



2. Ko'p atomli spirtlarni ohista oksidlab ham olinadi .




3. Oksikislota laktonga aylantirilib va Na amalhamasi ta'sirida qaytarilganda, aldogeksoza hosil bo'ladi.




Monosaxaridlarni ximiyaviy xossalari.


1. Glyukoza HJ yordamida qaytarilganda 2-yodgeksan hosil bo'ladi.




2. Glyukoza oddiy sharoitda oksidlansa, glyukan kislota hosil bo'ladi.




3. Glyukozani asillash.




4. Monosaxaridlar qaytarilganda ko'p atomli spirtlar hosil qiladi.



5. Monosaxaridlar fenilgidrozin bilan reaksiyaga kirishib, kristal moddalar - ozazonlar hosil qiladi.




6. Suyultirilgan ishqorlar ta'sirida glyukoza qisman o'z epimerlari, ya'ni D-mannoza va D-fruktozaga o'tadi. Kons ishqor eritmasi ta'sirida monosaxaridlarga parchalanadi. Suyultirilgan ishqor eritmasida qaynatilganda asosan sut kislota hosil bo'ladi.




(2)

7. Pentozalar suyultirilgan kislota ta'sirida, 3 molekula suvni ajratib chiqarib furfuroлга aylanadi.




6) Geksozalar esa hosil bo'lgan beqaror furfurol xosilasining parchalanishi natijasida mavulin va chumoli kislotani hosil qiladi.



8. Glyukozaning bijg'ishi.


a) Sut kislotali bijg'ishi .



b) Moy kislotali bijg'ishi .




c) Limon kislotali bijg'ishi .




Disaxaridlar polisaxaridlarni olinishi


1. Saxaroza hosil bo'lishida α -D-glyukoza va β -D-fruktoza o'zlarining glikozid gidroksillari bilan qatnashadi.




2. Maltoza kraxmalga solid tarkibidagi diastoz fa'ranti ta'sirida hosil bo'ladi :



3. Kraxmal tez qizdirilganda tarkibidagi gigroskopik suv xisobiga (D-20%) gidrolitik parchalanib ancha mayda, molekulyar og'irligi kichik bo'lgan bo'lakchalar hosil qiladi. Hosil bo'lgan modda polisaharidlar va dekstrinlar deyiladi. ($n > m$)



4. Sellyuloza murakkab biokimyoviy jarayonlarda hosil bo'ladi .




5. Asetat ipak olish uchun sellulozaga sirka anhidrid ta'sir ettiriladi .




Disaxaridlar va polisaxaridlarning ximiyaviy xossasi.


1. Pentozalar gidrolizga uchraganda har xil pentozalar olinadi.




2. Sellyuloza mineral kislotalar bilan qo'shib qizdirilganda gidrolizga uchrab, D-glyukozani hosil qiladi.



3. Sellyuloza nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishib, murakkab efir hosil qiladi :



4. Sellyulozaning ishqor bilan ishlanishi natijasida hosil bo'lgan selluloza alkogolyatiga CS₂ ta'sir ettirilganda selluloza ksantogenati hosil bo'ladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KIMYO KAFEDRASI

ORGANIK KIMYO FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

Namangan 2019

Organik moddalarning miqdor va sifat taxlilini o'rganish Organik moddalarning asosiy sinflari, ularni nomlash – nomenklaturani aniqlash

Organik birikmalarning reaksiyon kobiliyati, reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish

Uglevodorodlarni aniqlash va o'rganish

2.1. Uglevodorod olinishi mumkin bo'lgan asosiy manbaalarni aytib bering.

2.2. Organik moddalarni nomlashning asosiy usullarini ayting.

2.3. Nima uchun metan molekulasini tetraedr shaklga ega va energetik barqaror birikma ekanligini tushuntiring.

2.4. Vuyuts reaksiyasi bo'yicha geksan oling va geksan tarkibidagi birlamchi, ikkilamchi uglerod atomlarini ko'rsating.

2.5. Quyidagi uglevodorodlarni sistematik va ratsional nomelatura bo'yicha nomlang.

- a) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$; b) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{CH}_3$;
c) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_3$; d) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CH}_3$;
e) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{C}_2\text{H}_5)\text{CH}_3$.


2.6. a) 2,3- dibrombutan; b) 2,3-dibrom –3-metilpentan; c) 1,2- dixlorbutan; d) 1,2- dixlor-3-metilbutanga rux metali ta'sir ettirilsa, qanday to'ynmagan uglevodorodlar hosil bo'ladi?

2.7. Butandan butadiyen –1,3 hosil qiling. Bu qaysi reaksiya turiga kiradi?

2.8. 1,1-dibrompropandan metilatsetilen (propin) hosil bo'lish reaksiyasini yozing.

2.9. Vodorod bromid birikishidan hosil bo'ladigan quyidagi birikmalar alkenlarning struktura formulalarini yozing: a) 2-brom-2,4-dimetilpentan; b) 2- brom-3-metilpentan; c) 2-brom-3-metilbutan; d) 2-brom-2-metilbutan.

2.10. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring:



Hosil bo'lgan uglevodorodlarni nomlang.

2.11. Tarkibida 17, 25, 42, 55 va 68 ta uglerod atomi bo'lgan to'yingan uglevodorodlarning molekulyar formulalarini yozing.

2.12. C_3H_6 , C_4H_6 , C_6H_6 , C_6H_{14} , C_{10}H_8 , $\text{C}_{11}\text{H}_{24}$, $\text{C}_{14}\text{H}_{28}$, $\text{C}_{15}\text{H}_{32}$ uglevodorodlarning qaysilari to'yingan?


2.13. Etan, propan, n-butan va izobutanning elektron formulalarini yozing.

2.14. Pentan va geksanning barcha izomerlari tuzilish formulalarini yozing va ularni ratsional hamda sistematik nomeklaturaga ko'ra nomlang.

2.15. n-septanning barcha izomerlari tuzilish formulalarini yozing va ularni ratsional hamda sistematik nomeklaturaga ko'ra nomlang. Har bir izomerdagi birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomlari sonini ko'rsating.


2.16. Oktanning bir vaqtning o'zida ham birlamchi, ham ikkilamchi, ham uchlamchi va ham to'rtlamchi uglerod atomlarini saqlagan izomerlarining tuzilish formulalarini yozing. Ularni ratsional va sistematik nomeklatura bo'yicha nomlang.

2.17. Quyida necha xil uglevodorodlar keltirilganligini aniqlang va ularni ikki xil nomeklaturaga ko'ra nomlang:



2.18. a) Metil radikali hamda b) metan, etan va propan molekularining fazoviy tuzilishi qanday?

2.19. Quyidagi uglevodorodlarni ratsional va sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang:



2.20. C_4H_9 , C_5H_{11} va C_6H_{13} radikallar izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va ularni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang.

2.21. Quyidagi moddalar to'g'ri nomlanganmi?

a) 3-propilgeptan; b) 2-metil-3-etilbutan; c) 4-butil-4-izobutilnonan; d) 4-izopropil-5-butildekan; e) 3,4-dimetilpentan; f) 4-izopropil-5-uchlamchibutildekan; j) 3-metil-5-izobutil-dekan; h) 3-etil-4-propiloktan; Noto'g'ri nomlanganlarini tuzating.

2.22. Quyidagi uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozib, sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang: a) metiletil-propilizobutilmetan; b) metildietilmetan; c) dimetilpropil-butylmetan; d) trimetilizobutilmetan; e) dipropildiizopropilmetan; f) α,α -diizopropil- β,β -diizobutiletan; j) α,β -dimetil - α -etil- β -izopropiletan.

2.23. Quyidagi: a) metilyodid va propilyodid; b) etilbromid va izobutilbromid; c) izopropilyodid va izoamilyodid; d) *n*-butilbromid va izobutilbromid aralashmalariga natriy metalli ta'sir ettirilganda qanday uglevodorodlar hosil bo'ladi?

2.24. Vyurts reaksiyasidan foydalanib: a) geksan; b) 2,5-dimetilgeksan c) $\text{C}_{40}\text{H}_{82}$ (tetrakontan); d) $\text{C}_{62}\text{H}_{126}$ (dogeksakontan); e) $\text{C}_{70}\text{H}_{142}$ (geptakontan); j) 2,2, 5,5-tetrametilgeksanni sintez qilish reaksiya tenglamalarini yozing.

2.25. Tegishli karbon kislotalar natriyli tuzlari suvli eritmalarini elektroliz qilib: a) *n*-butan; b) *n*-geksan; c) *n*-dekan; d) 2,3-dimetilbutan; e) 3,4-dimetilgeksan; j) 2,2,4,4-tetrametilbutanni olish reaksiyalari tenglamalarini yozing. Anod va katodda boradigan reaksiyalar mexanizmlarini tushuntiring.

Arenlar. Aromatik uglevodorodlarni o'rganish. Uglevodorodlarning galogenli xosilalarini o'rganish.

8.1. Benzol halqasidagi nechta π - va σ - bog' bor? Benzoldagi bog'larning etilendagi bog'dan farqi bormi?


8.2. Benzol halqasi uchun qaysi tur reaksiyalar xarakterli?

8.3. Aromatik uglevodorodlar qanday turlarga bo'linadi?


8.4. Aromatik uglevodorodlarni qaysi usullar yordamida olish mumkin? Ularning tabiiy manbaalariga misollar keltiring.

8.5. Birinchi va ikkinchi tur o'rinbosarlari benzol halqasidagi vodorod atomining qo'zg'aluvchanligiga qanday ta'sir qiladi?

- 8.6. Nima uchun ikkinchi tur o'rinbosarlari tutgan benzol hosilalari nukleofil reagentlarni ko'proq *m*-holatga almashtiradi? Javobingizni izohlang.
- 8.7. Elektrodonor va elektroakseptor o'rinbosarlar deb nimaga aytiladi? Misollar keltiring.
- 8.8. Nima uchun benzol tutab yonadi? Sababini tushuntiring.
- 8.9. Etilbenzol va 1,2,3-trimetilbenzolga kislotali muhitda kuchli oksidlovchilar ta'sir ettirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?
- 8.10. Vyurs-Fitting usuli bo'yicha aromatik uglevodorodlar qanday olinadi?
- 8.11. Agar *o*-, *m*-, *p*-ksilol tarkibiga yana bir o'rinbosar kiritilsa, uning har biri nechtdan izomer hosil qilishi mumkin?
- 8.12. Benzolni gologenlashda qaysi katalizatorlardan ko'proq foydalaniladi? Tegishli reaksiya tenglamalarini yozing.
- 8.13. Qanday qilib metandan benzol, atsetilendan etilbenzol olish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.
- 8.14. Quyidagi: a) C_6H_6 CH_3CH_2Br va $AlCl_3$ moddalardan foydalanib etilbenzol; b) C_6H_6 va $CH_2=CHCH_3$ dan izopropil-benzol olish reaksiya tenglamalarini yozing. Hosil bo'lgan moddalar qanday nomlanadi?
- 8.15. Formulasi C_9H_{12} bo'lgan aromatik uglevodorodlarning hamma izomerlari struktura formulalarini yozing va nomlang.
- 8.16. Quyidagi formulalar bilan necha xil modda berilgan:



- 8.17. Benzoldagi uglerod-uglerod va uglerod-vodorod bog'lari qaysi orbitallarning qoplanishidan hosil bo'ladi?
- 8.18. Quyidagi aromatik uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozing: a) 1,4-dietilbenzol; b) 1-metil-3-butilbenzol; c) 1,2-dimetil-4-pentilbenzol; d) 1-etil-4-izopropilbenzol; e) 1-metil-2-etil-4-izopropilbenzol; j) 1,2,4,5-tetrametilbenzol (durol); z) geksametilbenzol; z) allilbenzol (3-fenilpropen); i) etinilbenzol (fenilatsetilen); k) uchlamchipentilbenzol; l) *o*-etiltoluol.
- 8.19. Quyidagi aromatik uglevodorodlarni sistematik nomekla-turaga binoan nomlang:




- 8.20. a) *p*-etil-uchlamchibutilbenzol; b) *o*-metilizopropilbenzol; c) *m*-dietilbenzol; d) *o*-etil-ikkilamchibutilbenzolning struktura for-mularini yozib sistematik nomenklaturaga binoan nomlang.
- 8.35. a) 0,2 mol benzolni; b) 0,25 mol toluolni yoqish uchun qancha hajm kislorod va havo sarflanadi?
- 8.36. 15,6 g benzol AlBr_3 ishtirokida 64 g brom bilan reaksiyaga kiritildi. Agar brom to'liq sarflangan bo'lsa, qanday birikmalar hosil bo'ladi?
- 8.37. FeBr_3 katalizatorligida 7,8 g benzol 32 g brom bilan reaksiyaga kirishadi. Olingan brom reaksiyaga to'liq kirishganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?
- 8.38. 78 g benzolga brom ta'sir ettirib shuncha gramm brombenzol olindi. Bu massa reaksiya mahsulotining qancha foizini tashkil qiladi?
- 8.39. Nitrobenzol hosil qilish uchun 31,5 ml nitrat kislota ($\rho=1,4$ g/ml) necha gramm benzol bilan reaksiyaga kirishadi?
- [Javob: 54,6 g]
- 8.40. 100 g benzol vodorod bilan reaksiyaga kirishib 100 g massali tsiklogeksan hosil bo'ldi. Bu nazariy unumga nisbatan necha % ni tashkil qiladi?
- [Javob: 92,86%]
- 8.41. a) normal sharoitda olingan 1 m³ va b) 1 kmol atsetilendan qancha benzol olish mumkin? Benzolning unumi 28% ga teng deb hisoblang.
- [Javob: a) 32,42 kg; b) 7,28 kg]
- 8.42. 49 g metiltsiklogeksanni katalitik degidrogenlab toluol olishda necha litr vodorod ajralishini hisoblang. Reaksiyaning unumi nazariyga nisbatan 75% ni tashkil etadi.
- [Javob: 25,2 g]
- 8.43. 7,8 g benzol qizdirib turib katalizator ishtirokida tsiklogeksan-ga qadar gidrogenlanganda 3,36 l vodorod yutildi. Tsiklo-geksanning nazariy olinishi mumkin bo'lgan miqdoriga nisbatan % hisobidagi unumini aniqlang.
- [Javob: 50%]
- 8.44. Benzoldan 450 g xlorbenzol olish uchun qancha hajm xlor kerak bo'lishini hisoblab toping. Reaksiyaning sodir bo'lish shart-sharoitlarini ko'rsating.
- [Javob: 89,6 l Cl_2]
- 8.45. 39 g benzol yorug'da xlor bilan o'zaro ta'sir ettirilganda qanday birikma hosil bo'lishini aniqlang va uning massasini toping. Bu reaksiyada mahsulot unumi, nazariy jihatdan olinishi mumkin bo'lganning 50% ini tashkil etadi.
- [Javob: 72,75 g geksaxloran]
- 8.46. 39 g benzol nitrolovchi aralashma (kontsentrlangan nitrat va kontsentrlangan sulfat kislotalarning aralashmasi) bilan nitrolan-ganda reaksiya mahsulotining unumi nazariy unumning 80% ni tashkil etsa, qancha massa *m*-dinitrobenzol hosil bo'ladi?
- [Javob: 67,2 g dinitrobenzol]
- 8.47. Agar reaksiyaning unumi 30% bo'lsa, hajmi 10 m³ bo'lgan atsetilendan qanday massali benzol olish mumkin?
- 8.48. Massasi 24,6 g bo'lgan nitrobenzol olish uchun, benzolni nitrolash uchun kerak bo'ladigan 90% li ($\rho=1,483$ g/ml) HNO_3 eritmasining hajmini toping.

- 8.49. Benzolga 200 ml 94% li ($\rho=1,83$ g/ml) H_2SO_4 ta'sir ettirish natijasida hosil bo'ladigan benzolsulfokislotaning massasini aniqlang.
- 8.50. Massasi 15,6 g bo'lgan benzol va 15 l (nur ishtirokida) hajmli xlor o'zaro ta'sirlashishi natijasida hosil bo'ladigan geksaxlortsiklogeksanning massasini toping.
- 8.51. 117 g benzol va 316 g brom o'zaro ta'sirlashishi natijasida hosil bo'ladigan brombenzolning massasini toping. Reaksiya natijasida necha gramm qaysi moddadan ortib qoladi?
- 8.52. Agar reaksiyaning unumi 75% ni tashkil etsa, 886 ml ($\rho=0,88$ g/ml) benzol olish uchun kerak bo'ladigan atsetilenning normal sharoitdagi hajmini aniqlang.
- 8.53. 15,6 g benzolga mo'l miqdordagi bromni ta'sir ettirish natijasida 30 g massali brombenzol olingan bo'lsa, reaksiya unumini toping.
- 8.54. Hajmi 1,5 l ($\rho=0,88$ g/ml) bo'lgan benzoldan olinishi mumkin bo'lgan brombenzolning massasini toping.
- 8.55. Hajmi 200 ml va zichligi 0,66 g/ml bo'lgan *n*-geksanning tsiklik uglevodorodga aylanishi va degidrogenlanishi natijasida normal sharoitda o'lchangan qancha hajm vodorod hosil bo'ladi? Reaksiya 65% unum bilan boradi.

Gidroksisilalar. Spirtlar. Fenollarni o'rganish.

- 9.1. Tarkibida kislorod bor qanday organik birikmalarni bilasiz?
- 9.2. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlarning tuzilishida qanday farq bor?
- 9.3. Nima uchun spirtlarning qaynash harorati oddiy efirlarga nisbatan ancha yuqori?
- 9.4. Spirtlarni neytral modda ekanligini qanday isbotlash mumkin?
- 9.5. Eterifikatsiya va gidroliz deb qanday reaksiyalarga aytiladi?
- 9.6. Spirtlarni degitratlash qanday amalga oshiriladi? Bu jarayon natijasida qanday moddalar hosil bo'lishini mumkin?
- 9.7. Yog'och, vino va gidroliz spirtlari orasida farq bormi?
- 9.8. Nima uchun uchlamchi spirtlar oksidlanganda karbon kislotalarning aralashmasi hosil bo'ladi? Misollar keltiring.
- 9.9. Rektifikat va absolyut spirtlar oarsida qanday farq bor?
- 9.10. Eltikov qoidasini ta'riflang va uni vinil spirtining izomerlanishi misolida tushuntiring.
- 9.11. Etil spirtining struktura formulasini qaysi kimyoviy reaksiyalar asosida aniqlash mumkin?
- 9.12. Ikki idishning birida metil spirt, ikkinchisida esa geksil spirt bor. Ularni fizik va kimyoviy usullar bilan bir-biridan qanday qilib farqlash mumkin?
- 9.13. Spirtlar asosan qayerlarda ishlatiladi? Ular tarkibidagi aktiv vodorod atomlarini qanday aniqlash mumkin?
- 9.14. Spirtlarning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazmaydi. Ammo asoslarning suvdagi eritmasi elektr tokini o'tkazadi. Ikkala modda tarkibida ham OH-gruppa bor. Bu hodisani qanday izohlaysiz?
- 9.15. Quyidagi birikmalarni gidroksil gruppaning kislota kuchi ortib borish tartibida joylashtiring: a) suv; b) metanol; c) propanol; d) butanol; e) fenol.
- 9.16. Quyidagi spirtlarga mos keladigan olefinlarning gidratlanish reaksiyalari tenglamalarini yozing: a) izopropil spirt; b) izoamilspirt; c) 2-metil-pentanol-3; d) 3-etil-2-metilpentanol.

- 9.17. Quyidagi birikmalar ishqoriy muhitda gidrolizlansa, qaysi spirtlar hosil bo'ladi: a) 1-yod-3,4-dimetilpentan; b) 1-xlor-buten-2; c) 3-brombuten-1; d) 2,3-dibrombutan.
- 9.18. Tsement tarkibidagi erkin ohak miqdorini aniqlash usullaridan biri ohakning fenol bilan fenolyat hosil qilishiga asoslangan. Shu reaksiyaning tenglamasini tuzing.
- 9.19. Etil spirt, propan va etil xlorid molekullari tuzilishini taqqoslang. Nega propan suvda erimaydi-yu, etil spirt unda yaxshi eriydi? Nega etil xlorid 12,4°C da qaynagani holda etil spirt nisbatan yuqori haroratda (78,3°C) qaynaydi?
- 9.20. Gomologik qatorda spirtlar molekulyar massasining oshib borishi bilan ularning suvda eruvchanligining kamayishiga sabab nima?
- 9.44. 1 kg sintetik metil spirtni quyidagi usulda



hosil qilish uchun qancha hajm H_2 va CO olish kerak?

- 9.45. Natriy metali 1,80 g spirt bilan o'zaro ta'sirlashganda (n.sh.da) 336 cm^3 vodorod ajralib chiqadi. Shu spirtning molekulyar massasini va qaysi spirt ekanligini aniqlang.

[Javob: $\text{C}_3\text{H}_7\text{OH}$]

- 9.46. Natriy metali 1,85 g to'yingan bir atomli spirtga ta'sir ettirilganda 280 ml vodorod ajralib chiqadi. Shu spirtning molekulyar massasini va qaysi spirt ekanligini aniqlang.

[Javob: $\text{C}_4\text{H}_9\text{OH}$]

- 9.47. 23 g etil spirtning benzoldagi eritmasiga 2,5 g natriy ta'sir ettirilganda olinadigan vodorod qancha hajmni egallaydi?

[Javob: 1,22 l]

- 9.48. Propil spirtning benzoldagi eritmasiga mo'l natriy ta'sir ettirilganda 56 ml (n.sh.da) vodorod ajralib chiqadi. Eritmada necha gramm spirt bo'lgan?

[Javob: 0,3 g]

- 9.49. Molekulasida bitta gidroksil grupp bo'ladigan 3,7 g spirt n.sh.da 500 ml vodorodni siqib chiqaradi, shu spirtning nisbiy molekulyar massasini aniqlang.

- 9.50. Massasi 1 t bo'lgan etilenni gidratlash natijasida 96% li etil spirti eritmasidan necha tonna olish mumkin?

- 9.51. Massasi 15,7 kg propilyodidni gidratlash natijasida hosil bo'ladigan propil spirtning massasini toping. Reaksiyaning unumi 70% ni tashkil qiladi.

- 9.52. Etil spirti bilan 120 ml ($\rho=1,2$ g/ml) 40% li HBr eritmasi qo'shib qizdirilganda hosil bo'ladigan etilbromidning massasini aniqlang.

- 9.53. Hajmi 500 ml 96 % ($\rho=0,8$ g/ml)li etil spirtni yoqish uchun kerak bo'ladigan havoning hamda, reaksiya natijasida hosil bo'ladigan uglerod (IV)-oksidining hajmlarini toping.

[Javob: 480 l havo va 35,2 l CO_2]

- 9.54. 46 g etil spirtga 3,45 g massali natriy metali ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan vodorodning hajmini aniqlang.

[Javob: 1,68 l]

- 9.55. Massasi 20 kg bo'lgan etilen kontakt apparatidan o'tkazilganda 1,7 kg etanol hosil bo'ldi. Reaksiya unumini aniqlang.

[Javob: 5,18 %]

9.56. Agar reaksiyaning unumi 85% ni tashkil etsa, 7,2 g suv bilan reaksiyaga kirishadigan etilenning hajmini aniqlang.

[Javob: 19,04 l]

9.57. Massasi 0,32 g bo'lgan bir atomli to'yingan spirtning natriy metalli bilan ta'sirlashishi natijasida 112 ml (n.sh.da) vodorod ajralib chiqdi. Spirtning tuzilish formulasini aniqlang.

[Javob: CH_3OH]

9.58. 129 g xloretandan tegishli reaksiyalar yordamida 85 g etanol olingan bo'lsa, reaksiyaning unumini hisoblang.

9.59. Massasi 15 g bo'lgan propanol-1 ning massasi 9,2 g bo'lgan natriy bilan o'zaro ta'siri natijasida natriy projilatning qanday massasini olish mumkin?

[Javob: 20,5 g]

9.60. Butanol-1 ning mo'l miqdor natriy metalli bilan o'zaro ta'siri natijasida normal sharoitda 2,8 l hajmni egallaydigan vodorod ajralib chiqdi. Butanol-1 moddasining qancha miqdori reaksiyaga kirishgan?

9.61. Modda miqdori 0,5 mol bo'lgan metanol mo'l miqdor kaliy bromid va sulfat kislotasi bilan isitildi va massasi 28 g bo'lgan brommetan olindi. Brommetan unumini aniqlang.

[Javob: 80%]

9.62. Propanol-2 ning degidratlanishi natijasida olingan propilen massasi 200 g bo'lgan bromli suvni rangsizlantiradi. Bromning bromli suvdagi massa ulushi 3,2% ga teng. Reaksiya uchun olingan propanol-2 ning massasini aniqlang.

[Javob: 2,4 g]



9.63. Zichligi 1,4 g/ml bo'lgan 37 ml hajmdagi to'yingan bir atomli spirt namunasining degidratlanishi natijasida 39,2 g massali alken olinsa, shu spirtning formulasini aniqlang.

[Javob: $\text{C}_4\text{H}_9\text{OH}$]

9.64. Massasi 30 g bo'lgan to'yingan bir atomli spirt mo'l miqdor natriy metalli bilan o'zaro ta'sir etishidan normal sharoitda o'lchangan 5,6 l hajm vodorod hosil bo'ladi. Spirtning formulasini aniqlang.

11.1. Tsementdagi erkin ohak miqdorini aniqlash usullaridan biri ohakning fenol bilan fenolyat hosil qilishiga asoslangan. Shu reaksiyaning tenglamasini tuzing.

11.2. Quyidagi izomer birikmalardan qaysi biri ishqorga ta'sir ettirilganda vodorodni metalga almashtira oladi? Nima uchun?



11.3. Fenollar va aromatik spirtlarning xossalari o'rtrasidagi farq nimalardan iborat? Ulardagi OH gruppining aktivligini solishtiring.


11.4. Fenol qanday usullar bilan olinadi? Fenolning kislotalik xossaga ega ekanligini qanday tushuntirish mumkin?

11.5. Qaysi reaksiyalar yordamida fenolni benzoy kislotadan farq qilish mumkin? Bu birikmalarni bir-biridan qanday ajratish mumkin?

11.6. Fenol bilan benzil spiriti aralashmasini bir-biridan qanday usullar bilan ajratish mumkin?

11.7. Fenol ishtirokida qanday smola (polimer)larni sintez qilish mumkin? Bu polimerlarning amaliy ahamiyatini aytib bering.

11.8. Quyidagi birikmalarni nomlang:



- 11.9. Quydagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) *m*-krezol; b) 2,5-dinitrofenol; c) *p*-etilfenol; g) β -fenilpropil; d) pikrin kislota; e) *m*-nitrofenol; j) metilfenilkarbinol; z) *p*-brombenzil spirt.
- 11.10. Dioksibenzol, trioksibenzol, tetraoksibenzolning hamma izomerlari struktura formulasini yozing va tegishlilarining trivial nomini ayting.
- 11.11. Quydagi aromatik spirtlarning struktura formulalarini yozing: a) dietilfenilkarbinol; b) etil-*o*-tolikarbinol; c) izopropilfenilkarbinol; g) dimetilbenzilkarbinol;
- 11.12. Quydagi aromatik spirtlarning struktura formulalarini yozing: a) *p*-krezol (4-metilfenol); b) *m*-bromfenol; b) *m*-nitrofenol (4-metilfenolning etil efiri); g) 4-metilrezorsin; d) dimetilfenilkarbinol; e) saligenin (*o*-oksibenzil spirt); j) benzgidrol (difenilkarbinol); z) 4,4'-digidroksidifenilpropan (dion); i) pirogallol (1,2,3-trigidroksibenzol, benzentriol-1,2,3).
- 11.13. a) $\text{C}_6\text{H}_6\text{O}_3$ tarkibli uch atomli izomer fenollar; b) $\text{C}_7\text{H}_8\text{O}$ tarkibli fenollar; c) $\text{C}_8\text{H}_{10}\text{O}$ tarkibli izomer aromatik spirtlar tuzilish formulalarini yozing va ularni nomlang.
- 11.14. Tarkibi $\text{C}_7\text{H}_7\text{OH}$ bo'lgan barcha izomer fenollarining struktura formulalarini yozing va ularning sistematik nomenklaturaga ko'ra nomini ayting.
- 11.15. Barcha izomer dibromfenollarning struktura formulalarini yozing va ularning sistematik nomenklaturaga ko'ra nomini ayting.
- 11.16. Benzol qatoridagi tarkibi $\text{C}_7\text{H}_8\text{O}$ bo'lgan izomer birikmalarning struktura formulalarini yozing. Izomerlardan har biri organik birikmalarning qaysi sinfiga kirishini aniqlang.
- 11.17. 2-metil-6-xlorfenolga hammasi bo'lib nechta izomer fenol mos bo'lishi mumkin? Har bir izomerlarning tuzilish formulalarini va nomlarini yozing.
- [Javob: 12 ta izomer]
- 11.18. Uchta probirkada butanol-1, etilenglikol va fenolning benzoldagi eritmasi bo'lsa, har bir moddani aniqlash uchun qanday moddalar foydalaniladi?
- [Javob: $\text{Cu}(\text{OH})_2$; $\text{Br}(\text{H}_2\text{O})$]
- 11.19. Fenol qanday moddalar bilan ta'sirlashganda: a) oq rangli cho'kma; b) binafsha rangli eritma; c) oq rang qizil rangga bo'yaladi?
- 11.20. *p*-krezol olishning uch xil usulini keltiring. Bu reaksiyalarning borish sharoitini ko'rsating.
- 11.21. Agar reaksiyaning unumi 70% ni tashkil etsa, 4,7 g fenol olish uchun kerak bo'ladigan xlorbenzol va KOH larning massasini aniqlang.
- 11.22. Fenol bilan bromli suv reaksiyaga kirishishi natijasida 4,97 g tribromfenol hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyaga olingan fenol va 8% li brom eritmasining massalarini aniqlang.
- 11.23. 1 t xlorbenzolni 450°C da gidrolizlab, necha kg fenol olish mumkin? Nazariy jihatdan 15% fenol hosil bo'ladi, deb hisoblang.
- [Javob: 125 kg]
- 11.24. 3 mol natriy fenolyat hosil bo'lishi uchun necha gramm o'yuvchi natriy fenol bilan reaksiyaga kirishadi?
- [Javob: 120 kg]
- 11.25. 25 g fenol 50% li 5 g formalin bilan xlorid kislota ishtirokida qizdirilganda nazariy jihatdan qancha va qanday modda hosil bo'ladi?
- [Javob: 10,33 g fenolospirt]
- 11.26. 2 t natriy fenolyatdan qancha fenol olish mumkin?
- [Javob: 1620,7 kg]
- 11.27. 5 mol fenolga sirka kislotaning xlorangidridi ta'sir ettirilganda qancha fenolning sirka efiri hosil bo'ladi?

[Javob: 680 g]

11.28. 52,8 g kaliy krezolyat hosil bo'lishi uchun o'yuvchi kaliy bilan necha gramm krezol reaksiyaga kirishadi? Kukun holdagi mis katalizatori ishtirokida kaliy krezolyatga xlorbenzol ta'sdir ettirilsa, qanday modda hosil bo'ladi?

[Javob: 39 g feniltolil efir]

11.29. 18,8 g fenolyatga kerakli miqdorda etilxlorid ta'sir ettirilganda necha gramm etilfenil efir hosil bo'ladi?

[Javob: 19,8 g]

11.30. Fenolga 4% li bromli suv ta'sir ettirilganda 4,97 g tribromfenol hosil bo'ldi. Qancha brom eritmasi sarflanadi? Reaksiya tenglamasini yozing.

[Javob: 180,25 g]

11.31. 22,9 g 2,4,6-trinitrofenol olish uchun kerak bo'ladigan 68% li ($\rho=1,4$ g/ml) HNO_3 eritmasidan qancha hajm sarf bo'lishini aniqlang.

[Javob: 19,85 ml]

11.32. Massalari 20 g dan bo'lgan fenol va kaliy ishqoridan qanday massali kaliy fenolyat olish mumkin?

[Javob: 28 g]

11.33. Massasi 78 kg bo'lgan benzoldan tegishli reaksiyalar yordamida qanday massali fenol olish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing. Ishlab chiqarishdagi isrofgarchiligi 15% ga teng.

11.34. 95% li 25 g $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$ 80 g 1% li Br_2 ning suvdagi eritmasi bilan o'zaro ta'sirlashganda hosil bo'ladigan reaksiya mahsulotining massasini aniqlang.

c) B tipidagi masalalar

11.35. Massasi 10 kg bo'lgan kaliy fenolyatdan olinishi mumkin bo'lgan fenolning massasini hamda, bu reaksiyaga sarflanadigan 90% ($\rho=1,8$ g/ml)li H_2SO_4 eritmasining hajmi (litrdagi)ni aniqlang.

[Javob: 7,12 kg; 4,58 l]

11.36. 9,4 g fenolning 7 ml ($\rho=1,43$ g/ml) 40% li NaOH eritmasi bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida hosil bo'ladigan moddalarning eritmadagi massa ulushlari (% da)ni aniqlang.

[Javob: 59,18% $\text{C}_6\text{H}_5\text{ONa}$]

11.37. Fenolning 21,4 g massali sirka kislotadagi eritmasini to'liq neytrallash uchun KOH ning 2 M li eritmasidan 150 ml sarf bo'lgan bo'lsa, boshlang'ich eritmaning massa ulushini aniqlang.

[Javob: 44% fenol]

11.38. Etil spirti va fenoldan iborat aralashmaga natriy metali ta'sir ettirilganda 2,24 l (n.sh.da) H_2 gazi ajralib chiqqan bo'lsa, xudda shunday massali aralashmaga brom ta'sir ettirilganda 33,1 g massali tribromfenol hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashma tarkibidagi har bir moddaning massa ulushi (% da)ni aniqlang.

[Javob: 67,15% $\text{C}_6\text{H}_5\text{OH}$; 32,85% $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$]

11.39. 100 g massali fenolning suvdagi eritmasini neytrallash uchun 40% li ($\rho=1,4$ g/ml) KOH eritmasidan 25 ml sarf bo'ldi. 100 g fenolning suvli eritmasiga 1% li Br_2 ning eritmasidan qancha qo'shganda, boshlang'ich eritmadagi fenolning hammasi cho'kmaga tushadi?

[Javob: 12 kg]

11.40. Massali 4,7 g bo'lgan fenolning hajmi 4,97 ml ($\rho=1,38$ g/ml) bo'lgan NaOH eritmasi bilan o'zaro ta'siri natijasida natriy fenolyatning qanday massasi olinishi mumkin? Natriy gidroksidning eritmasidagi massa ulushi 35% ni tashkil etadi.


[Javob: 5,8 g]

11.41. Fenolning benzoldagi 200 g massali eritmasi mo'l miqdor bromli suv bilan o'zaro ta'siri natijasida massasi 66,2 g bo'lgan fenolning bromli hosilasi olindi. Fenolning eritmadagi massa ulushini aniqlang.

[Javob: 9,4%]

Karbonilli birikmalar. Al'degid va ketonlarni o'rganish Karboksilli birikmalar va ularning funktsional xosilalari aniqlash Nitrobirikmalarni o'rganish

- 12.1. Oksobirikmalar deb qanday organik birikmalarga aytiladi?
- 12.2. Aldegidlarning ketonlardan struktura tuzilishi bo'yicha farqi nimada?
- 12.3. Aldegid va ketonlarning umumiy formulalarini yozing va ularning gomologik qatorlariga misollar keltiring.
- 12.4. Aldegid va ketonlarni sistematik nomlashda qanday qoidaga amal qilinadi?
- 12.5. Nima uchun aldegidlarning kimyoviy reaksiyalarga moyilligi ketonlarga nisbatan kuchli?
- 12.6. Aldegid va ketonlarning tabiatan o'xshashligini isbotlovchi kimyoviy reaksiyalarni yozing.
- 12.7. Aldegid va ketonlar qaysi xossalari bilan bir-biridan farq qiladi?
- 12.8. Aldegid va ketonlar olishning asosiy usullarini bayon eting.
- 12.9. "Aldol" va "kroton kondensatsiya" deb qaysi kimyoviy reaksiyalarga aytiladi? Misollar keltiring.
- 12.10. "Dismutatsiya" nima? Formaldegidining dismutatsiyalanish reaksiyasi tenglamasini yozing.
- 12.11. Aldegid va ketonlardagi karbonil guruhning elektron tuzilishi va uning uglevodorod radikaliga ta'sirini tushintiring. C=O va C=C bog'larning o'xshashligi va farqi nimada?
- 12.12. Propion aldegid va 4-penten-2-on molekularining elektron formulalarini yozing. C-H, C-C, C=C va C=O bog'lar qaysi orbitallarning qoplanishidan hosil bo'lganligini ko'rsating.
- 12.13. Tarkibida karbonil gruppasi bo'lgan quyidagi birikmalarni nomlang:



- 12.14. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) 2-metilpentanal; b) izomoyaldegid; c) metilizobutylketon; g) 3-metilgeksanal; d) metilbutanon; e) 5,5-dimetil-3-geksonon; j) 2,2,6-trimetil-4-heptanon; z) 3-metil-2-butanal.
- 12.15. a) 2-metilpentanal; b) propilizobutylketon; c) 6,7-dimetil-3-oktenal; g) pentandiol; d) 3,5-oktandion; e) 4-oksopentanal; j) 3,4,4-trimetilgeksanal; z) 3-metil-2-pentanalning tuzilish formulalarini yozing.
- 12.16. a) 2,3-dimetilbutanal; b) 2-metil-4-pentanal; c) 2,2-dimetil-4-pentinal; g) izovalerian aldegid; d) 2,6-dimetil-4-heptanon; e) 2,5-dimetil-4-heptanon; j) 5,5-dimetil-1-geksen-3-on; z) 2,2-dimetil-5-geksin-3-on birikmalarni tuzilish formulalarini yozing va ularni ratsional nomenklaturaga binoan nomlang.
- 12.17. Molekulyar formulasi quyidagi tarkibga $\text{C}_4\text{H}_8\text{O}$, $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}$ va $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}$ mos keladigan aldegid va ketonlarning barcha izomerlarini struktura formulasini yozing. Ularni sistematik va ratsional nomenklatura bo'yich nomlang.
- 12.18. Bosh zanjirida 5 ta uglerod atomi bor $\text{C}_7\text{H}_{14}\text{O}$ tarkibli izomer aldegid va ketonlarning tuzilish formulalarini yozing va ularni sistematik nomenklaturaga binoan nomlang.
- 12.19. Metiletilketonni; a) ikki atomli beqaror spirtni degidratlash; b) olefinlarni ozonlash; c) organik kislotalarning kaltsiyli tuzlarini quruq haydash; g) Grinyar reaksiyasi va d) Kucherov reaksiyasi yordamida olish reaksiya tenglamalarini yozing.
- 12.20. Quyidagi aldegid va ketonlarni olish uchun qaysi spirtlarni oksidlash kerak: a) metiletilketon; b) izopropil sirka aldegid; c) trimetil sirka aldegid; g) etil ikkilamchi-butylketon?
- 12.48. 0,5 mol sirka aldegid mo'l miqdor kumush oksidning ammiakdagi eritmasi bilan oksidlanganda qancha kumush ajralib chiqadi?

[Javob: 54,0 g]

- 12.49. 1 t 99% li sirka aldegid olish uchun 1,5 t gacha 87% li texnik etil spirt sarflanadi. Aldegidning unumini % da ifodalang.

[Javob: 79,3%]

- 12.50. Formalin - chumoli aldegidning suvdagi 40% li eritmasidir. 8 kg 50% li formalinda qancha miqdor formaldegid bo'ladi?
[Javob: 4 kg]
- 12.51. Sanoatda atsetaldegid olish uchun Kucherov reaksiyasidan foydalaniladi. Tarkibida 20% bosqa moddalar bo'lgan 100 kg kaltsiy karbiddan qancha miqdor aldegid olish mumkin? Aldegidning unumi 80% ni tashkil etadi.
[Javob: 24,7 kg]
- 12.52. 1,1-dixlorpropan gidrolizlanganda 56,5 g propanon hosil bo'ladi. Reakaiyaga kirishgan dixlorpropanning miqdorini aniqlang.
[Javob: 96,7 g]
- 12.53. Ikkilamchi izoamil spirtini katalitik degidrogenlash reaksiyasiga uchratib, 43 g tegishli keton olindi. Reaksiya tenglamasiga asosan qancha miqdor spirt sarf bo'lganini hisoblang.
[Javob: 44 g]
- 12.54. Sanoatda etilen oksid yuqori harorat va katalizatorlar ishtirokida etilenni havo kislorodi bilan oksidlab olinadi. Shu reaksiyaning unumi 92% bo'lsa, 112 l etilen oksid olish uchun qancha hajm etilenni oksidlash kerak?
[Javob: 103 l]
- 12.55. Massasi 40 kg bo'lgan texnik kaltsiy karbiddan 22 kg sirka aldegid olingan bo'lsa, texnik kaltsiy karbid tarkibidagi qo'shimchalarning massa ulushini aniqlang.
[Javob: 20%]
- 12.56. 11 kg etanalni etanolga aylantirish uchun kerak bo'ladigan vodorodning (n.sh.da) hajmini va hosil bo'ladigan etanolni massasini aniqlang.
[Javob: 5,6 m³]
- 12.57. 60% li 200 ml ($\rho=0,8$ g/ml) metil spirtidan tegishli reaksiyalar yordamida qancha hajm 40% li HCHO eritmasi ($\rho=1,1$ g/ml) olish mumkinligini aniqlang.
[Javob: 204,5 ml]
- 12.58. 20% li ($\rho=1,06$ g/ml) formaldegid suvli eritmasining qanday hajmiga kumush (I)-oksidining ammiakli eritmasi ta'sir ettirilganda 1,08 g massali kumush metali cho'kmaga tushadi?
[Javob: 0,7 ml]
- 12.59. Hajmi 448 ml (n.sh.da) bo'lgan atsetilendan 83% unum bilan aldegid olindi. Shu aldegidga kumush (I)-oksidining ammiakdagi eritmasi ta'sir ettirilishi natijasida hosil bo'ladigan Ag metalining massasini aniqlang.
- 12.60. 40% li 55 g CH₃CHO eritmasi bilan Cu(OH)₂ qo'shib qizdirilishi natijasida hosil bo'ladigan Cu₂O ning massasini aniqlang.
[Javob: 72 g]
- 12.61. 0,5 g massali texnik sirka aldegidga Ag₂O ning ammiakdagi eritmasi ta'sir ettirilganda 2,16 g massali metall cho'kmaga tushgan bo'lsa, texnik preparat tarkibidagi toza moddaning massa ulushini aniqlang.
[Javob: 88%]
- 12.62. Hajmi 3 l va zichligi 1,06 g/ml bo'lgan eritma tarkibidagi formaldegid moddasining miqdorini aniqlang. Eritmadagi CH₂O ning massa ulushi 20% ga teng.
[Javob: 21,2 mol]
- 12.63. Formaldegidning massa ulushi 40% bo'lgan formalin eritmasini olish uchun massasi 300 g bo'lgan suvda qancha hajmdagi (n.sh.da) formaldegid eritish kerak? Formalinning qanday massasi olinadi?
[Javob: 149,3 l CH₂O; 500 g eritma]
- 12.64. Massasi 13,8 g bo'lgan etanolning massasi 28 g bo'lgan mis (II)-oksid bilan o'zaro ta'siri natijasida aldegid olindi, uning massasi 9,24 g ni tashkil etdi. Reaksiya mahsuloti unumini aniqlang.
[Javob: 70%]

- 12.65. Sanoatda atsetaldegid Kucherov reaksiyasi bo'yicha olinadi. Massasi 500 kg bo'lib, undagi qo'shimchalarning massa ulushi 10,4% ni tashkil etgan texnik kaltsiy karbiddan atsetaldegidning qanday massasi olinishi mumkin? Atsetaldegidning unumi 75% ga teng.
[Javob: 231 kg]
- 12.66. Hajmi 336 l (n.sh.da) bo'lgan metanning havo kislorodi bilan katalitik oksidlanishida olingan aldegid formalin olishda ishlatildi. Agar formaldegidning eritmadagi massa ulushi 40% bo'lsa, qancha massali formalin hosil bo'lgan?
[Javob: 675 g]
- 12.67. Agar Kucherov reaksiyasi bo'yicha 6,72 l (n.sh.da) atsetilendan 75% unum bilan, aldegid olinsa, atsetaldegidning 20% li eritmasidan qancha massa hosil bo'ladi?
[Javob: 49,5 g]
- 12.68. 6,4 g kaltsiy karbiddan olingan atsetilen Kucherov reaksiyasi bo'yicha atsetaldegidga aylantirildi. Ana shu atsetaldegid kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan o'zaro ta'sir ettirilganda qancha massali Ag metali ajralib chiqadi?
[Javob: 21,6 g Ag]

Aminobirikmalarni o'rganish Diazo- va azobirikmalarni o'rganish

Sulfokislotalarni o'rganish Aralash funktsiyali birikmalarni aniqlash va o'rganish

Geterosiklik birikmalarni o'rganish Oqsillar. Fermentlar. Vitaminlar Nuklein kislotalar. Lipidlarni o'rganish Uglevodlarni o'rganish

- 13.1. Nima uchun ikki va uch asosli kislotalarda kislotali xossa bir asosli kislotalarga qaraganda kuchliroq?
- 13.2. Bir asosli karbon kislotalarning qanday umumiy xossalarini bilasiz?
- 13.3. Bir va ikki asosli karbon kislotalarning gomologik qatorini keltiring.
- 13.4. Kimyoviy nuqtai nazardan "sirka", "moy" va "sovun" iboralarini qanday tushuntira olasiz?
- 13.5. Moylar tarkibidagi radikallarning to'yinmaganligini qanday isbotlash mumkin?
- 13.6. Sovun kislotali muhitda o'zining "yuvish" xususiyatini yo'qatadi. Buning sababi nimada?
- 13.7. To'yinmagan karbon kislotalar gomologik qatori a'zolaridan dastlabki uch vakilining formulasini yozing. Uchinchi vakilining barcha izomerlarini ko'rsating. Ularning ahamiyati haqida aytib bering.
- 13.10. To'yinmagan karbon kislotalarning murakkab efirlariga misollar keltiring. Ularning sanoatda qanday ahamiyati bor?
- 14.1. Eterifikatsiya, gidroliz va sovunlanish deb qanday reaksiyalarga aytiladi?
- 14.2. Oddiy efirlar nima uchun qiyin gidrolizlanadi?
- 14.3. Oddiy efirlardagi metomeriya izomeriyasiga misollar keltiring.
[Javob: Masalan, C_2H_6O (CH_3OCH_3 va CH_3CH_2OH)]
- 14.4. Qanday efirlar tsellozolvlar deb ataladi? Ular qayerlarda ishlatiladi?
[Javob: $ROCH_2CH_2OH$]
- 14.5. Oddiy efirlar vodorod protonini biriktirib "oniy" birikmalarga xos asoslikni namoyon qiladi. Etil efirining: a) HCl; b) H_2SO_4 bilan hosil qilgan "oniy birikmalari" tuzilishini yozing va nomlang.
- 14.6. Oddiy efirlar kontsentrlangan xlorid kislotada eriydi, lekin suvda erimaydi. Bu hodisaning mohiyatini izohlab bering. Dipropil efirga konts. HCl ta'sir ettirilganda sodir bo'ladigan reaksiya tenglamalarini yozing.
- 14.7. Moylar tarkibidagi radikallarning to'yinmaganliklarini qanday isbotlash mumkin?
- 14.8. Sovun, kislotali muhitda o'zining "yuvish" xususiyatini yo'qotadi. Buning sababi nimada?
- 14.9. Qanday birikmalar murakkab efirlar deb ataladi?
- 14.10. Polivinil atsetat sanoat miqyosida nimadan olinadi va qaysii mahsulotlar uchun ishlatiladi?






- 15.1. Uglevodlar - aralash funksiyali birikmalar ekanligini qaysi reaksiyalar orqali isbotlash mumkin?
- 15.2. Monosaxaridlarni polisaxaridlardan qaysi xossalarga asoslanib bir-biridan farq qilish mumkin?
- 15.3. Tabiatda uglevodlar *fotosintez jarayoni* natijasida hosil bo'ladi. Fotosintez jarayonining mohiyatini tushuntiring.
- 15.4. "*Mutoratatsiya hodisasi*"ning qanday amaliy ahamiyati bor? U asosan qaysi sinf birikmalariga xos? Nima uchun?
- 15.5. Quyidagi birikmalardan qaysi biri uglevodlar sinfiga kiradi va nima uchun?
- $\text{CH}_2\text{OH}-\text{CHOH}-\text{CHOH}-\text{CHOH}-\text{CHO}$
 - $\text{CH}_3-\text{CH}(\text{CH}_3)-\text{CH}_2-\text{CHO}$
 - $\text{CH}_2\text{OH}-\text{CO}-\text{CHOH}-\text{CHOH}-\text{CHOH}-\text{CH}_2\text{OH}$
- 15.6. Aldotetroza, ketogeksoza, aldogeksoza va aldogeptozalarning struktura formulalarini yozing.
- 15.7. Glyukoza qaysi kimyoviy xossasi uning molekulasini halqasimon (tsiklik) shaklda ekanligini ko'rsatadi? Misol yozib, tushuntiring.
- 15.8. Monosaxaridlarga quruq HCl ishtirokida metil spirt ta'sir ettirilganda qanday mahsulotlar hosil bo'ladi?
- 15.9. Glyukoza tarkibida 5 ta gidroksil va aldegid gruppalar borligini qaysi reaksiyalar asosida aniqlanadi?
- 15.10. Quyidagi uglevodlarning molekulasini tuzilishi bir-biridan nima bilan farq qiladi?
- glyukoza va fruktoza;
 - glyukoza va arabinoza;
 - glyukoza va mannoza
- 16.1. Benzol, fenol va nitrobenzolning kimyoviy va fizikaviy xossalarga asoslanib, shu birikmalarining aralashmasini tarkibiy qismlarga ajratish usulini taklif qiling.
- 16.2. Yoqilg'ini yondirishda oksidlovchi sifatida metanning hosilasi - tetranitrometan ishlatiladi. Shu birikmaning formulasini yozing.
- 16.3. Aminning proton biriktirib olish xususiyatiga sabab nima?
- 16.4. Anilinga ozroq aralashgan fenolni qanday oddiy usulda ajratib olish mumkin?
- 16.5. Benzol bilan anilinning aralashmasi bor. Haydash usulidan foydalanmay turib, qanday qilib shu aralashmadan benzolni ajratib olish mumkin?
- 16.6. Anilin toza suvda yaxshi eriydimi yoki ozroq kislota qo'shigan suvdami? Javobingizni izohlab bering.
- 16.7. Ikkita idishning biriga anilin tuzining eritmasi, boshqachasiga dietilamin tuzining eritmasi to'ldirilgan. Ishqor eritmasidan foydalanib, har qaysi idishda nima borligini aniqlash mumkinmi? Javobingizni tegishli reaksiyalarning tenglamalarini yozib tasdiqlang.
- 16.8. Tajriba tugagandan keyin anilinli idishni yuvib, anilindan tozalash kerak. Buning uchun siz suv, natriy gidroksidning va xlorid kislotaning suyultirilgan eritmalaridan qaysi birini ishlatishingiz kerak bo'ladi? Nima uchun?
- 16.9. Fotografiyada ishlatiladigan *para*-aminofenolning (formulasi $\text{HO}-\text{C}_6\text{H}_4-\text{NH}_2$): a) xlorid kislota bilan; b) natriy gidroksid bilan reaksiyalarining tenglamalarini yozing.
- 16.10. Nitrobirikmalar olishning qanday usullarini bilasiz? Nitrobirikmalarda nima uchun *semipolyar bog'* mavjud? Nitrobirikmalar asosan qayerlarda ishlatiladi?
- 16.56. Laboratoriyada nitrolash reaksiyasi natijasida 78 g benzoldan 105 g nitrobenzol olindi. Bu nazariya jihatidan hosil bo'lishi lozim bo'lgan miqdorning necha foizini tashkil etadi?
[Javob: 85,4%]
- 16.57. Benzolning nitrat kislota bilan reaksiyasida 82 g nitrobenzol olindi. Bunda necha gramm benzol reaksiyaga kirishgan?
[Javob: 52 g]
- 16.58. Laboratoriyada 61,5 g nitrobenzolni qaytarish bilan 44 g anilin olindi. Bu nazariy jihatdan olinishi lozim bo'lgan anilinning necha foizini tashkil etadi.
[Javob: 94,6%]

- 16.59. Anilinning suvdagi suyultirilgan eritmasiga mo'l brom qo'shildi. Reaksiya natijasida 3,3 g cho'kma hosil bo'ldi. Eritmada necha gramm anilin bo'lgan?
[Javob: 0,93 g]
- 16.60. Nitrobenzolni ammoniy sulfid bilan qaytarib anilin olish (N.N. Zinin) reaksiyasi tenglamasini yozing. 24,6 g nitrobenzol raksiyaga kirishganda, nazariy jihatdan qancha anilin hosil bo'lishini hisoblang.
[Javob: 18,6 g]
- 16.61. 182,3 g *p*-toluidin olish uchun qancha *p*-nitrotoluol olish kerak (reaksiyaning unumini 70% deb hisoblang)?
[Javob: 334 g]
- 16.62. Reaksiyaning unumi 80% bo'lganda, 200 g *m*-nitrotoluoldan qancha *m*-toluidin hosil bo'ladi?
[Javob: 125 g]
- 16.63. 200 ml 0,5 M xlorid kislota eritmasiga mo'l miqdorda temir ta'sir ettirilganda ajralib chiqadigan vodorod gazi bilan nitrobenzol qaytarilganda hosil bo'ladigan anilinning massasini aniqlang.
[Javob: 1,55 g]
- 16.64. 40% ($\rho=1,19$ g/ml) 7,7 ml HCl eritmasini neytrallash uchun kerak bo'ladigan anilinning massasini aniqlang.
[Javob: 9,3 g]
- 16.65. Metilaminning 20 ml suvli eritmasini netrallash uchun 0,1 N xlorid kislotadan 12,3 ml sarf bo'lgan. Metilamin eritmasining konsentratsiyasini aniqlang.
[Javob: 0,0615 N]
- 16.66. 135 g etilamin nitrit kislota bilan reaksiyaga kirishganda (n.sh.da) necha litr azot chiqadi?
[Javob: 67,2 l]
- 17.1 Aminokislotalarning oksikislotalar bilan o'xshashlik va farqlari nimada? Misollar keltiring.
- 17.2. Aminokislotalar qanday usullar bilan olinadi? Ularni nomlashda qanday qoidaga rioya qilinadi?
- 17.3. Oqsillardagi peptid bog'larning tuzilishi qanday? Ular qanday gidrolizlanadi? Oddiy va murakkab oqsillar orasidagi farq nimada?
- 17.4. Oqsillar uchun bo'lgan rangli reaksiyalarni yozing
- 17.5. Inson normal ovqatlanish uchun organik moddalarning qaysi turlari birinchi navbatda zarur? Ularning tarkibi, tuzilishi va ishlab chiqarilishi sohasida nimalarni bilasiz?
- 17.6. Qanday tajribalar yordamida oqsil molekulasini tarkibida oltingugurt atomi borligini aniqlash mumkin?
- 17.7. Ikki probirkadagi eritmalaridan biri oqsil eritmasi ekanligini aniqlash uchun konsentrlangan nitrat, xlorid va sulfat kislotaning qaysi biridan foydalanish mumkin?
- 17.8. Ikki probirkaning har birida 1 ml dan oqsil eritmasi bor. Ularning biriga fenol, ikkinchisiga esa formalin quyilsa qanday holat kuzatiladi?
- 17.9. Aminosirka kislotaning etil efiri toza suvda yaxshi eriydimi yoki ozroq kislota eritmasi q'o'shilgan suvdami? Nima uchun?
- 17.10. Tuzilishi $\text{NH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COONH}_2$ bo'lgan aminokislota nima uchun neytral, $\text{HOOCCH}_2\text{CH}(\text{NH}_2)\text{COOH}$ tarkibli aminokislota esa kislotali muhitga ega ekanligini tushuntirib bering.
- 17.11. Aminosirka kislota (glitsin)ning etil efiri suyultirilgan mo'l xlorid kislota qo'shib qaynatildi, so'ngra eritma suv hammomida qurigunga qadar bug'latildi. Bug'latilgandan keyin qolgan qoldiq nimadan iborat bo'ladi?
- 17.12. Sirka kislota bilan aminosirka kislota etil efirlarining aralashmasini bir-biridan qanday ajratish mumkin?
- 17.13. α -alanin bilan glitsindan olish mumkin bo'lgan ikki xil dipeptid hosil bo'lishining sxemalarini yozing.
- 17.14. Nima uchun aminokislotalarning ko'pchiligi amfoter xossaga ega bo'ladi? Tegishli reaksiyalar yordamida bu fikrni tasdiqlang.

- 17.15. Quyidagi aminokislotalarning bipolyar ko'rinishidagi formulalarini yozing: α -alanin, fenilalanin, α -aminoizomoy kislota.
- 17.16. Glikokolning 0,89 g etil efiriga 0,56 g kaliy gidroksidning suvdagi eritmasini qo'shib ma'lum vaqt davomida qaynatildi, so'ngra aralashma qurigunga qadar bug'latildi. Qoldiqda nima qolishi kerak? Uning massasi qancha?
- 17.17. Sutda eruvchan oqsil – molekulyar massasi 16300 bo'lgan *laktoalbumin* bo'ladi. 10 g massali ana shunday oqsil gidrolizga uchratilganda 11,75 g turli xil aminokislotalar aralashmasi olinadi. Shunday oqsilning molekulasini tarkibiga nechta aminokislota qoldig'i kiradi?
[Javob: 151 ta aminokislota qoldig'i]
- 17.18. 46 g aminosirka kislolaning ammoniyli tuzi natriy gidroksid va mo'l miqdordagi xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishganda qanday birikmadan qancha massada hosil bo'ladi?
[Javob: 50,75 g $^{-}Cl^{+}NH_3CH_2COOH$]
- 17.19. 1,5 g aminosirka kislota eterifikatsiya reaksiyasiga kiritish uchun 96% li etil spirtidan ($\rho=0,8$ g/ml) necha millilitr kerak bo'ladi? Ushbu reaksiya uchun spirt ikki baravar ko'p olingan deb hisoblang.
[Javob: 11,5 ml]
- 17.20. Murakkab efir holiga o'tkazilgan aminokislota tarkibida 15,73% azot bor. Uning molekulyar massasini va tuzilishini aniqlang.
[Javob: $NH_2CH_2COOCH_3$; $M_r=89$ g/mol]
- 17.21. Molekulyar massasi 146 ga teng bo'lgan 0,073 g massali aminokislota nitrit kislota ta'sir ettirilganda 224 ml (n.sh.da) erkin azot ajralib chiqdi. Tekshirilayotgan aminokislota nechta amino guruh borligini aniqlang.
[Javob: 2 ta $-NH_2$ guruh]
- 17.22. Aminokislotalar bilan nitrit kislolaning o'zaro ta'sirlashuv reaksiyasidan aminokislotalarni miqdoran miqdoran aniqlashda foydalanganligi ma'lum. Tarkibida alanin (α -aminopropion kislota) bo'lgan 0,4 g aralashmaga nitrit kislota ta'sir ettirilganda 44,8 ml (n.sh.da) azot hosil bo'ladi. Tekshirilayotgan aralashmadagi alaninning foiz miqdorini hisoblang.
[Javob: 7,12%]
- 17.23. Nitrit kislota eritmasining aminosirka kislota bilan o'zaro ta'siridan 3,65 ml (n.sh.da) azot gazi ajraladi. Aminosirka kislolaning massasini aniqlang.
[Javob: 0,012 g]
- 17.24. 10 g aminosirka kislota dekarboksillanganda necha litr (n.sh.da) uglerod (IV)-oksid ajraladi? Reaksiya natijasida qanday modda hosil bo'ladi?
[Javob: 2,99 l; CH_3NH_2]
- 17.25. Agar molekulasini tarkibida faqat bir atom oltingugurt bor desak va uning miqdori 0,32% ni tashkil etsa, oqsil molekulasining taxminiy molekulyar massasi qancha bo'ladi?
[Javob: 10000]






BA'ZI RADIKALLARNING NOMLANISHI

Formulasi	Nomi	Formulasi	Nomi
ALKILLAR VA TSIKLOALKILLAR			
$CH_3 -$	Metil	$CH_2 - (CH_2)_4 -$	Pentil (amil)
$C_2H_5 -$	Etil	$(CH_3)_2CHCH_2CH_2 -$	Izopentil (izoamil)
$C_3H_7 -$	Propil	$(CH_3)_3C-CH_2-$	Neopentil
$(CH_3)_2CH -$	Izopropil		Tsiklopropil
$CH_3-(CH_2)_3 -$	Butil		Tsiklobutil



$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)-$	Ikkilamchi butil		Tsiklopentil
$(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{CH}_2-$	Izobutil		Tsiklogeksil
$(\text{CH}_3)_3\text{C}-$	Uchlamchi butil		
ALKENILLAR VA ALKINILLAR			
$\text{CH}_2=\text{CH}-$	Vinil	$\text{CH}\equiv\text{C}-$	Etil
$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_2-$	Allil	$\text{CH}_3-\text{C}\equiv\text{C}-$	Propinil
$\text{CH}_3-\text{CH}=\text{CH}-$	Propenil	$\text{CH}\equiv\text{C}-\text{CH}_2-$	Propargil
$\text{CH}_2=\text{C}(\text{CH}_3)-$	Izopropenil		
$(\text{CH}_3)_2\text{C}=\text{CH}-$	Izobutenil		
ALKILIDENLAR			
$\text{CH}_3-\text{CH} =$	Etiliden	$(\text{CH}_3)_2\text{C} =$	Izopropiliden
$\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH} =$	Propiliden		Tsiklogeksiliden
ARIL RADIKALLAR			
$\text{C}_6\text{H}_5 -$	Fenil		O – kumil
$\text{C}_6\text{H}_5 - \text{CH}_2 -$	Benzil		α – naftil
$\text{CH}_3 - \text{C}_6\text{H}_4 -$	Tolil (o-,m-,n-)		β - naftil
	Mezitol	$\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}=\text{CH}-$	Stiril
$(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{C} -$	Tritil	$\text{C}_6\text{H}_5 - \text{CH} =$	Benziliden
KISLORODLI RADIKALLAR			
	Alkoksil	Atsil	
$\text{CH}_3\text{O} -$	Metoksi	HCO} -	Formil
$\text{C}_2\text{H}_5\text{O} -$	Etoksi	CH}_3-\text{CO} -	Atsetil
$\text{C}_3\text{H}_7\text{O} -$	Propoksi	C}_2\text{H}_5-\text{CO} -	Propionil
$\text{C}_6\text{H}_5\text{O} -$	FENOKSI	$(\text{CH}_3)_2\text{CH}-\text{CO} -$	Izobutiril
$\text{C}_6\text{H}_5-\text{CH}_2-\text{O} -$	BENZOKSI	C}_6\text{H}_5-\text{CO} -	Benzoil
AZOTLI RADIKALLAR			
$\text{CH}_3-\text{CO}-\text{NH} -$	Atsetilamin	- NH -	Imin
$\text{H}_2\text{N}-\text{NH} -$	Gidrazin	$\text{HCO} - \text{NH}$	Formilamin
$(\text{CH}_3)_2\text{N} -$	Dimetilamin		

I. UGLEROD ATOMLARI MIQDORI ORTISHIGA OLIB KELUVCHI REAKSIYALAR

Bitta uglerod atomiga:




Ikkita uglerod atomiga:




Uglerodlar sonini ikki marta orttiruvchi reaksiyalar:


Vyurs reaksiyasi (galogenalkillarni natriy bilan tasirlashuvi)




Kolbe reaksiyasi (karbon kislotalar tuzlarining elektrolizi)




Atsetilening dimerlanishi:




Atsetilening formaldegid bilan kondensatlanishi:




Kislotalarning katalitik ketonlanishi:



Al'dol va kroton kondensatlanish reaksiyalari:




Murakkab efirli kondensatlanish (Kleyzen reaksiyasi):



Uglerod zanjirini istalgan uglerod atomi soniga ortishi


NATRIY ATSETILENIDNI ALKILLASH




Bu reaksiya faqat birlamchi va ikkilamchi galogenalkillarga xos, uchlamchi galogenalkillarda reaksiya sharoitida HX ajraladi.

Grinyar reaksiyasi bo'yicha spirtlar olish.


Ikkilamchi spirtlarni: a) aldegidlardan




b) chumoli kislota efirlaridan:




Uchlamchi spirtlarni: a) ketonlardan




b) kislotalarning murakkab efirlaridan:




Grinyar reaktivi va nitrillar asosida ketonlar olish




Atsetosirka efir va uning gomologlarini alkillash hamda atsillash reaksiyalari



bu yerda:



Malon efirini alkillash va atsillash reaksiyalari







II. UGLEROD ZANJIRINING QISQARISHIGA


OLIB KELUVCHI REAKSIYALAR

Uglerod zanjirining bitta uglerod atomiga qisqarishi


Karbon kislotalarning dekarboksillanish (bir asosli va ikki asosli kislotalarning hosilalari)



Gofmanning qayta guruhlanishi (kislota amidlarining aminlarga aylanishi)




Metilketonlar (metilalkilkarbinol) ning gipogalogenidlar tasirida oksidlanishi




Uglerod zanjirining ikki va undan ortiq uglerod

atomiga qisqarishi

β -ketokislota efirlarining kislotali parchalanishi:




Alkenlarning oksidlanishi:





BA'ZI FUNKTSIONAL GRUPPALARGA SIFAT REAKTSIYALAR


Qo'shbog' uchun (alkenlar, alkadiyenlar, alkinlar, tsikloalkenlar)



bu yerda $KMnO_4$ eritmasining rangsizlanishi kuzatiladi.






$KMnO_4$ eritmasi va bromli suv rangsizlanadi.




$KMnO_4$ – eritmasi va bromli suv rangsizlanadi.



Alkenlar ozon O_3 bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega. Bunday jarayonga ozonoliz deb atalib, bu jarayon natijasida σ - hamda π -bog'lar uzilishi kuzatiladi:




Masalan:




Harakatchan vodorodli monoalkilatsetilenlar - *atsetilenidlar* hosil qiladi




Dialkilatsetilenlar suv tasirida ketonlar hosil qiladi:




Tutash dien uglevodorodlar malein angidrid bilan qattiq mahsulot (addukt) hosil qiladi.




Spirtlar natriy metali tasirida vodorod, metilmagniiyodid tasirida esa metan hosil qiladi.




Aldegidlar oson oksidlanadi, shuning uchun kumush gidroksidning ammiakdagi eritmasini qaytaradi (“Kumush ko’zgu” reaksiyasi):




Ketonlar azotli nukleofil brikmalar bilan kristall holdagi birikmalar hosil qiladi (oksimlar, gidrazonlar va hokazo):




Ikkilamchi spirtlar va ketonlar yo’doform reaksiyasini beradi:




Organik kislotalar karbonat kislotani uning tuzlaridan siqib chiqaradi:




Birlamchi nitrobirikmalar nitrit kislota ta’sirida nitrol kislota hosil qiladi, u esa o’z navbatida ishqor bilan reaksiyaga kirishib qizil rangli tuz hosil qiladi:




Ikkilamchi nitrobirikmalar nitrit kislota ta’sirida psevdonitrollar – rangsiz kristallar hosil qiladi:



Birlamchi aminlar nitrit kislota ta'sirida azot ajratib, spirt yoki alken hamda suv hosil qiladi:



Ikkilamchi aminlar nitrit kislota ta'sirida kristall holdagi nitrozaaminlar hosil qiladi:




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

KIMYO KAFEDRASI

ORGANIK KIMYO FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI



Namangan 2019

LABORATORIYA ISHI № 1
ORGANIK KIMYO LABORATORIYASIDA ISHLASH QOIDALARI. ASBOB VA
USKUNALAR BILAN TANISHISH ORGANIK MODDALARNI TOZALASH USULLARI
O'RGANISH. QAYTA KRISTALLASHNI BILISH. ATMOSFERA BOSIMIDA
XAYDASHNI O'RGANISH

Kimyo laboratoriyasida ishlashda rioya qilinadigan havfsizlik texnikasi qoidalar

Kimyo laboratoriyasida laboratoriya ishi boshlashdan avval, talaba texnika havfsizligi qoidalar bilan tanishib chiqishi shart va mahsus daftarga imzo chekishi lozim.

Kimyo laboratoriyasida ishlash qoidalar. Asbob va uskunalar bilan tanishish.



Kimyo laboratoriyalarida ishlatiladigan moddalarning ko'pchiligi ozmi-ko'pmi sog'likka ta'sir qiladi. Shuning uchun laboratoriyada ishlashda quyidagi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish shart.

1. Konsentrlangan kislotalar, xlor, yod, vodorod sulfid bilan o'tkaziladigan tajribalar mo'rili shkafda bajariladi.
2. Xlor, brom, vodorod sulfid va uglerod (II)-oksid bilan zaharlanganda, avvalo zaharlangan kishini ochiq havoga olib chiqish, so'ngra tegishli yordam ko'rsatish kerak.
3. Kuchli kislotalardan konsentrlangan sulfat kislotani suyultirishda suvni kislotaga emas, balki kislotani suvga tomchilatib quyiladi.
4. Ko'zga yoki tanaga biror ximiyaviy reaktiv sachrasa, zararlangan joyni avval suv bilan yaxshilab yuvib, so'ngra vrachga murojaat qilish lozim.
5. Vodorod va boshqa gazlarni yoqishdan avval ularning tozaligini sinab ko'rish kerak.
6. Laboratoriya ishi tugagach, qo'lni yaxshilab yuvish kerak.
7. Reaktivlarni bir idishdan ikkinchi idishga quyishda idish ustiga engashmaslik kerak.
8. Simob va uning bug'i-kuchli zahar. Shuning uchun simobli asbob yoki termometr singanda to'kilgan simobni yig'ib olish va bu haqda, albatta, o'qituvchiga aytish kerak.

Ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lganda ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam

1. Kislota ta'sirida kuygan joy avvalo uzoq muddat mo'l suv bilan, so'ngra suyultirilgan natriy bikarbonat eritmasi bilan yuviladi (3%).
2. Ishqordan kuygan joy ham avval uzoq muddat suv bilan va keyin sirka yoki limon kislotasining 3% li eritmasi bilan yuviladi.
3. Teri bromdan kuyganda, terining shu joyini ko'p miqdordagi spirt bilan, yoki natriy tiosulfatning 15-20% li eritmasi bilan hamda mo'l suv bilan yuvish lozim, so'ngra dori surtish kerak.
4. Ko'zga kislota va ishqor tomchisi sachrasa ko'zni avvalo ko'p suv bilan, keyin sodaning 3% li eritmasi bilan va oxirida bor kislotaning to'yingan eritmasi bilan yuviladi.
5. Reaktivlar bilan kishi organizmi og'iz orqali zaxarlansa, ko'p suv ichishi lozim. Metallarning tuzlari bilan zaxarlanganda sutli mahsulotlar ichishi yoki tuxum yutishi kerak.
6. Kuyish, jaroxatlanish, zaxarlanishning hamma xolatlari birinchi tibbiy yordam berilgandan so'ng tezda yaqin oradagi tez tibbiy muassasaga murojat qilish lozim.

Kimyoviy idishlar va ularning vazifalari

Kimyo laboratoriyalarida odatda shisha idishlar ko'p ishlatiladi. Probirkalar, stakanlar, yumaloq va yassi tubli kolbalar, sovutgichlar, aralashtirgichlar va h.k. Shishadan yasalgan idishlar kimyoviy reagentlar va issiqlik ta'siriga chidamli bo'lib, tiniq, oson yuviladi va ularni termik qayta ishlash mumkin.

Probiirkalar – kimyoviy reaksiyalarni o'tkazishda ishlatiladigan bir tomoni berk shisha naylar. Turli ko'rinish va o'lchamlarda, turli markadagi shishalardan tayyorlangan bo'ladi. Dastlabki tekshirish va reaksiyalar uchun juda qulay. Probirkani *a*-holatda qizdirish to'g'rimas, *b* - holatda qizdirish to'g'ri.

Stakanlar – stakanlarni suvli eritmalar bilan ishlaganda yordamchi idishlar sifatida qo'llaniladi. Organik suyuqliklar bilan ish olib borilganda ularni odatda qo'llanilmaydi, xamda eritmalar

bug'latishda xam qo'llanilmaydi. Ularni asosan, 100⁰S dan ortmaydigan xaroratda o'tadigan reaksiyalarda qo'llaniladi. Stakanlarni ikki turi qo'llaniladi: past va baland stakanlar.

Kolbalar – Turli tubli kolbalar, bularni og'zi ya'ni tepa qismi keng va tor xolda bo'ladi. Ular eritma tayyorlash va ularni saqlash uchun ishlatiladigan idishlar sifatida qo'llaniladi. Yuqori xarorat ayniqsa, vakuumda olib boriladigan jarayonlarda ulardan foydalanilmaydi. Yuqori xaroratda olib boriladigan reaksiyalar uchun yumoloq tubli kolbalar ishlatiladi. Xaydash moslamalari xisoblangan deflegmatorlar va rektifikatsion kolonkalar bilan jixozlangan yumoloq tubli kolbalarni xaydash uchun ishlatiladi. Yuqori qismi uzun bo'lgan yumoloq tubli kolbalarni suv bug'i bilan xaydash uchun qo'llaniladi. Tepa qismi kalta bo'lgan yumoloq tubli kolbalarni esa vakuumli xaydashlarda qabul qilgichlar sifatida qo'llaniladi.

So'rib olish idishlari–(Bunzen kolbalari). Bu kolbalarni devorlari qalin bo'ladi va vakuum ostida so'rib olish uchun qo'llaniladi. Shuningdek Byuhner voronkalaridan foydalaniladi.

Sovutqichlar - Yuqori xaroratda xaydalayotgan suyuqliklar uchun xavo sovutgichlarini qo'llaniladi, past xaroratda xaydalanilayotgan suyuqliklar uchun esa Libix sovutgichlar qo'llaniladi. O'yuvchi suyuqliklarni isitilganda xar xil turli qaytaruvchilar qo'llaniladi. Teskari sharikli sovutgichlar va ichki sovutuvchi teskari sovutgichlar.

Yuvgichlar – kolba va boshqa idishlarni yuvishda ishlatiladi. Odatda kuchsiz bocim ostida sklyankadagi suyuqlik bilan kerakli ishlovlar o'tkaziladi.

Tomizgich va ajratgich voronkalar. Tomizgich va ajratgich voronkalari reaksiyon aralashmaga suyuqlikni quyish va ajratish uchun uzun naycha bilan jixozlangan oddiy, katta bo'lmagan o'lchamli nok simon va silindrik tomizgich voronkalar qo'llaniladi.

Voronkalar – Oddiy shisha voronkalar uchun yoki kalta naychali bo'ladi. Suyuqliklarni bir idishdan ikkinchi idishga quyishda va oddiy bosimda fil'trlashda qo'llaniladi. Kichik bosimda fil'trlash uchun shisha forforli yoki setkali voronkalar qo'llaniladi.

Shpatellar – Shpatellar temirli, nikelli va farfordan tayyorlangan shpatellar ko'proq qo'llaniladi. SHpatillarni asosan, idish devorlaridan, fil'trlardan cho'kmalarni olish uchun, qog'ozga solish uchun xamda reaktivlarni idishdan olish uchun qo'llaniladi.

Fil'trlash - qattiq fazadan suyuq fazani ajratish uchun laboratoriyada bir qator usullardan foydalaniladi. Oddiy xolatda qattiq cho'kmani suyuqlikdan dekantatsiya yo'li bilan olinadi, ya'ni suyuqligini to'kib tashlashdir. Agar cho'kma kolloidli xossalarga ega bo'lsa yoki juda kam miqdorda cho'kmani ajratish kerak bo'lsa, tsentrafugalashni qo'llaniladi. Lekin laboratoriya sharoitida fil'trlash katta ahamiyatga ega. Rasmda bukma va silliq filtrlarni yasash va voronkaga joylashtirish usullari ko'rsatilgan. Shuningdek filtrlash jarayonidan misollar keltirilgan.

Exsikatorlar - vakuumli va oddiy bosimli bo'lib, moddalarni quritish, tashqi tasirlardan asrash, moddalar va idishlarni hona haroratigacha sovutish uchun qo'llanadi.


Farfor idishlar - chinni materialidan tayyorlangan bo'lib deyarli barcha reagentlar ta'siriga chidamli hisoblanadi, faqat ishqor eritmalarini qaynatish va uzoq vaqt saqlash tavsiya etilmaydi. Ushbu idishlarda qizdirish, kuydirish va maydalash ishlari olib boriladi.

ORGANIK MODDALARNI TOZALASH USULLARI. QAYTA KRISTALLASH. ATOMOSFERA BOSIMIDA XAYDASHNI O'RGANISH

Tajriba №1. Moddalarni kristallash

Asbob va reaktivlar: benzoy kislota, asetanilid yoki sulfanil kislota, 50 ml.li kimyoviy o'tga chidamli stakan, elektr plita (yopiq), shtativ, voronka, filtr qogoz.

Ish tartibi: Tozalanmagan, asetanilid, sulfanil kislota yoki benzoy kislotasidan 1g tarozda tortib olib, 50 ml stakanga soling. Ustiga oz-ozdan suv quyib aralashtirib turing va qaynagunicha extiyotkorlik bilan qizdiring. Moddaning hammasi erib ketguncha suv quyishni davom ettiring. (15-20 ml) va qaynoq eritmani filtr qog'ozli voronkadan o'tkazing.




Filtrni suv jo'mragi tagida sovuting va hosil bo'lgan kristallni filtr yordamida ajrating, so'ng quriting. Quritilgan kislotani tarozda o'lchang. Toza olingan kislotaning chiqimini hisoblang.

Tajriba №2 Suyuqlanish temperaturasi aniqlash

Materiallar va reaktivlar: Benzoy kislota, asetanilid, sulfanil kislota yoki mochevina. Suyuqlanish temperaturasi aniqlaydigan asbob, spirt- lampa yoki gaz gorelka.

Qattiq moddaning suyuqlanish temperaturasi uning xarakterli konstantasidir. Odatda toza modda temperaturaning qisqa intervalida ($0,1-1^{\circ}\text{C}$) suyuqlanadi.




Moddalarni suyuqlanish temperaturasi aniqlaydigan asbob. Quritilgan modda kukuni bir uchi kavsharlangan kapillyarga, oq qogoz ustida, oz-ozdan urib joylashtiriladi. Moddaning kapilyarning tubiga tushirib zich (2-3 mm balandlikda) joylashtirish uchun modda solingan kapilyarning kavsharlangan tomonini pastga qaratib, uzunligi 50-80 sm bo'lgan shisha nay ichiga bir necha marta tik qilib, shisha plastinka yoki soat oynasi ustiga tashlab, zichlanadi, keyin kapilyarning modda bor qismi termometrning simobli shar ustida yoki undan yuqoriroqda bo'lishi kerak.

n tiqin bilan probirka og'ziga mahkamlanadi. Probirkaga nay orqali amlanadi. Kolba va probirka ichidagi bo'shliq tashqi atmosfera bilan tutashgan bo'lishi kerak, buning uchun kolba yuqorisida tuynuk yoki tiqinda kesik joy bo'lishi shart.

Asbobni asta-sekin qizdiring. Suyuqlanish temperaturasi aniq bo'lsin uchun qizdirish minutiga $1-2^{\circ}\text{C}$ ga ko'tariladigan darajada olib boriladi.

Tajriba №3. Atmosfera bosimida haydash

Asbob va materiallar, reaktivlar: benzin, benzol, toluol, aseton va efir aralashmasi; Vyurs kolbasi, termometr, sovitgich, alonj, yig'gich kolbasi-3ta (25ml dan), elektr plita. Rasmdagi asbobni yig'ing.



Oddiy atmosfera bosimida haydash uchun qurilma

Kolbaga 20-30 ml benzin aralashmasidan soling, shuningdek bir necha dona chinni bo'lagi («qaynatar») dan Vyurs kolbasiga soling. Elektr isitgichda kolbani bir meyorda qizdiring. Qizdirish haydalayotgan distillat yig'gich idishga minutiga 20-30 tomchidan tushib turadigan darajada davom ettirilsin. Temperatura aralashmadagi biron moddaning qaynash intervaliga yetgach ($0^{\circ}\text{C}-60^{\circ}\text{C}$) birinchi fraksiya yig'gichga o'ta boshlaydi. Undan yuqori temperaturada ($60^{\circ}\text{C}-85^{\circ}\text{C}$) ikkinchi

fraksiya yig'ib olinadi. So'ng yig'gich yana almashtirilib (85°C-110°C), uchinchi fraksiya yigib olinadi. Haydash kolbasida 4-5ml suyuqlikda qolganda qizdirish to'htatiladi. Har bir fraksiyaning miqdorini o'lchang, ularning dastlabki aralashma miqdoriga nisbatan prosentini toping. Qoldiqning prosent miqdorini aniqlang.

Tablisa №1

№	Fraksiya	Haydaliş temperaturasi, °C	Xajmi, ml	%
1.	1-chi fraksiya	0°C-60°C		
2.	2-chi fraksiya	60°C-85°C		
3.	3-chi fraksiya	85°C-110°C		
4.	Qoldiq	-		





LABORATORIYA ISHI № 2

ORGANIK MODDALARNI SIFAT JIXATDAN TADQIQ QILISH

Tajriba №1. Organik moddalar tarkibidagi uglerod va vodorodni aniqlash

Ishning bajarilishi: Organik moddalarning tarkibida asosan 4 xil element bor: C-uglerod, H-vodorod, O-kislorod, N-azot. Bularni umumlashtirib organogenlar deb ataladi. Organik birikmalarning sifat analizi ular parchalanganda (yoki yonganda) hosil bo'ladigan noorganik birikmalar CO₂, H₂O, NH₃, H₂S va boshqalarning sifat reaksiyalari bilan aniqlashga asoslangan. Deyarli hamma organik moddalar qizdirilganda o'z xossalarini o'zgartirib, suyuqlanadi va qorayadi.

Quruq probirkaga 1ml gliserin (yoki 2g shakar) va mis (II)-oksid solib aralashtiring. Aralashmaning yuqorirog' qismiga gigroskopik paxta joylashtirib, uning ustiga o'tda toblangan (suvsizlangan) mis sulfat kukunidan bir oz soling. Egik nay o'rnatilgan rezina tiqin bilan probirka berkitiladi. Nayning ikkinchi uchini bariy gidroksidli (yoki kalsiy gidroksidli) probirkaga tushiring. Tekshirilayotgan modda solingan probirkani extiyotlik bilan qizdiring, bunda birikma tarkibidagi uglerod (IV)-oksid, vodorod esa suv hosil qiladi. Bunda karbonat anhidrid ikkinchi probirkadagi bariy gidroksidni oq loyqaga bariy karbonatga, suv esa oq suvsiz mis-(II)-sulfatini ko'k kristallariga aylantiradi. Reaksiya olib borilayotgan birinchi probirka tubida yaltiroq element-mis hosil bo'ladi.






Organik moddalar tarkibidagi uglerod va vodorodni aniqlash

Quruq probirkaga 1 ml glitserin (yoki 2 g shakar) va mis (II)- oksid solib aralashtiring. Aralashmaning yuqorirog'iga gigroskopik paxta joylashtirib, uning ustiga o'tda toblangan (suvsizlangan) mis sulfat kukunidan biroz soling. Egik nay o'rnatilgan rezina tiqin bilan probirka berkitiladi. Nayning ikkinchi uchini bariy gidroksidli (yoki kalsiy gidroksidli) probirkaga tushiring(rasmdagidek asbob yig'ing).

Uglerod va vodorodni aniqlash uchun ishlatiladigan qurilma.

Reaksiya olib borilayotgan birinchi probirka tubida yaltiroq element – mis hosil bo'ladi:






LABORATORIYA ISHI № 3

SPIRTDAN ETILEN OLISH. BROMNING ETILENGA BIRIKISHINI O'RGANISH.



ETILENNING YONISHINI KO'RISH.

Tajriba №1. Spirtdan etilen olish. *Asbob va reaktivlar:* etil spirt, sulfat kislota, «qaynatar» (sopol bo'laklari).

Ishning bajarilishi: Probirkaning chorak qismiga 1 og'irlik qism etil spirtli va uch og'irlik qism




konsentrlangan sulfat kislota solinadi. (1:3) Aralashma bir tekis qaynash uchun kolbaga chinni siniqlarini soling. Kolbaning og'zini gaz o'tkazgich nay o'rnatilgan tiqin bilan berkiting. Nay hosil bo'lgan sulfit anhidridni yutish uchun natron ohak donalari bilan to'ldiring. Aralashmani suyuqlik probirkadan otilib chiqmasligi uchun asta qizdiring. Bunda probirkadagi aralashma qorayadi, ya'ni etil spirti suvsizlanib, etilen hosil bo'ladi, reaksiya ikki bosqichda boradi:



Reaktivlar: Etilen olish aralashmasi (96 % etil spirti va konsentrlangan sulfat kislota aralashmasi 1:2 nisbatda), bromli suv (to'yingan eritmasi), 2% KMnO_4 eritmasi, 10% Na_2CO_3 eritmasi.

Asboblari: Etilen olish asbobi, qaynatgichlar (maydalangan farfor bo'lakchalari, kvarts qumi). Xlorokalsiy trubkasi (CaCl_2 to'ldirilgan), gaz o'tkazuvchi trubkalar, tigellar qopqoqlari.

Quruq probirkaga 1 qism (4-5 ml) spirt va 6 qism konsentrlangan sulfat kislotadan iborat aralashma quyiladi va og'zi gaz chiqish nayi o'tkazilgan probka bilan berkitiladi. Gaz chiqish nayining ikkinchi uchi suvli probirkaga tushirilib qo'yiladi. So'ngra reaktivli probirka 45° burchak ostida shativga o'rnatilib, sekin qizdiriladi. Natijada probirkadagi mahsulot qorayadi va gaz holatidagi mahsulot - etilen ajralib chiqadi:



Tajriba №3. Etilenning kaliy permanganat eritmasi bilan reaksiyasi (Vagner reaksiyasi).

Probirkaga 2 ml 2 %-li KMnO_4 eritmasi quyilib, unga 0,5 ml 10 %-li soda eritmasi quyiladi. Keyin etilen o'tkaziladi. Binafsha rang yo'qoladi. Bunda cho'kmani tushushiga e'tibor bering. Agar ko'proq etilen o'tkazilsa, bu cho'kma yo'qoladi. Reaksiya tenglamasi.



Tajriba №4. Etilenning yonishi.

Gaz ajratgich trubka uchida etilen yondiriladi, u yorug' alanga berib yonadi. Nima uchun alangaga tigil qopqog'i yaqin ushlab turilganda qora dog' hosil bo'ladi? Etilendagi uglerod va vodorodning foiz (%) miqdorini hisoblang.

LABORATORIYA ISHI № 4


ATSETILEN XOSIL QILINISHINI O'RGANISH. ATSETILENGA BROMNING BIRIKISHINI KUZATISH. ATSETILENNI OKSIDLASH REAKTSIYALARINI O'RGANISH UGLEVODORODLARING GALOGENLI XOSILALARINI ANIQLASH. ETIL BROMID SINTEZ QILISHNI O'RGANISH, ZARURIY REAGENTLAR MIQDORINI XISOBLASH

Tajriba №5. Asetilenning olinishi va xossalari


Reaktivlar: CaC_2 , KMnO_4 , bromli suv.

Asboblari: Probirkalar, gaz o'tkazgich nayi, shtativ, gaz gorelka.

Probirkaga bir necha bo'lak kalsiy karbid solib, ustiga 1-2 ml suv quyiladi va probirkaning og'zi gaz chiqish nayi o'rnatilgan tiqin bilan tezda berkitiladi. Kalsiy karbidning suv bilan o'zaro ta'sir reaksiyasi shiddatli borib, gazsimon mahsulot - asetilen ajralib chiqadi:



Ajralib chiqayotgan asetilen nay og'zida o't oldirilsa, u nur sochib dudli alanga bilan yonadi:




Hosil bo'lgan asetilen bilan 2-3 tajribalar o'tkaziladi.

Tajriba №6. Asetilenning oksidlanishi

Toza probirkaga 2 ml kaliy permanganat eritmasidan solib, ishqoriy muhit hosil qilish uchun ozroq soda ko'shiladi va aralashmadan asetilen o'tkaziladi. Bunda eritmaning binafsha rangi yo'qoladi va marganes (IV)-oksidning qo'ng'ir cho'kmasi hosil bo'ladi. Bu asetilen oksidlanganligini bildiradi. Asetilenning kaliy permanganat ta'sirida oksidlanish reaksiyasi murakkab bo'lib, pirovardida karbonat angidrid va suv hosil bo'ladi.

Tajriba №7. Asetilenga bromning birikishi


Probirkaga bromli suvdan 5 ml solinadi va undan asetilen o'tkaziladi. Bunda asetilenga bromning birikishi natijasida bromli suv rangsizlanadi va tetrabrometan hosil bo'ladi:





Tajriba №1. Etill bromid sintezi

Reaktivlar.	Etill spirt, 95%	-10 ml
	Kaliy bromid	-5g
	Konsentrlangan sulfat kislota	-3-5 tomchi
	Suv	-2ml


Asosiy reaksiya:




Reaksiya mexanizmi:



Qo'shimcha reaksiyalar:





Etil bromid sintezi uchun asbob

Xajmi 25ml-li bo'lgan probirkaga 4ml konsentrlangan sulfat kislota va uning ustiga aralashtirib turgan holda 10ml sovutilgan 95%-li etil spirti, so'ngra 2ml suv quyiladi. Aralashmaga 5g yaxshi maydalangan kaliy bromid qo'shiladi va kolba sovutgich vazifasini bajaruvchi shisha naychaning ikkinchi uchi suvli probirkaga tushiriladi. Reaksiyon aralashma past alangada qaynash darajasigacha (30 minut atrofida) gorelka yoki spirtovka yordamida qizdiriladi va hosil bo'lgan etil bromid 10 minut atrofida ehtiyotlik bilan haydab olinadi. Suv ostidagi moysimon etilbromid tushishi tugaguncha qizdiriladi. reaksiya tugagach etil bromid ajratgich voronka yordamida suvdan ajratiladi. 10-15 minutdan so'ng issiq etil bromid termometr va sovutgich bilan jixozlangan Vyurs kolbasiga quyilib, 37-39°C-da haydab olinadi. Etil bromidning hosil bo'lishi 2,7-2,9g (52%).



Etilbromidning solishtirma og'irligi $d_4^{20} = 1,461$, sindirish ko'rsatkichi $n_D^{20} = 1,4239$.

LABORATORIYA ISHI № 5

SIRKA KISLOTA IZOAMIL EFIRI SINTEZ QILISHNI O'RGANISH SIRKA ALDEGID SINTEZ QILISHNI O'RGANISH, ZARURIY REAGENTLAR MIQDORINI XISOBLASH

Tajriba №1. Sirka kislota etil efirini olish

Reaktiv va materiallar : natriy atsetat kristallari, etil spirt, kons, sulfat kislota; probirkalar, isitish asbobi. Probirkaga 1 g natriy atsetat kristallaridan solib, unga 2 ml etil spirt quying. Aralashmaga 1 ml kons. Sulfat kislota kushib oxista qizdiring. Ko'p o'tmay sirka kislota etil efiriga xos xid paydo bo'ladi:




Kislota yoki uning tuzlariga bevosita spirt ta'sir ettirib murakkab efir olish eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. Murakkab efirlar olishning yana qanday usullarini bilasiz? Reaksiya tenglamalarini yozing.

Tajriba №2 Sirka kislota izoamil efirini hosil qilish

Reaktivlar: konsentrlangan sirka kislota, izoamil konsentrlangan sulfat kislota, suv hammomi, probirkalar.

Asosiy reaksiya:



Probirkaga 2ml izoamil spirt, 2ml konsentrlangan sirka kislota va 0,5ml konsentrlangan sulfat kislota soling. Aralashmani yaxshilab qorishtiring va qaynab turgan suv hammomida 5-10 minut isiting, shundan so'ng uni suv solingan probirkaga quying efir suyuqlik sirtiga qalqib chiqadi. Undan ananas hidi keladi.

Tajriba №3. Etil spirtni kaliy dixromat ta'sirida oksidlanishi.

Probirkaga kaliy bixromat eritmasidan 4 ml, 20 % li sulfat kislota eritmasidan 2 ml va etil yoki izoamil spirtidan 1 ml oling. Probirkani chayqatib aralashtiring va ehtiyotlik bilan ohista qizdiring. Eritmaning rangining o'zgarishi va probirkadan o'ziga xos hid kelishiga e'tibor bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

Tajriba №4. a) Etil spirtini kaliy permanganat ta'sirida oksidlanishi.

Probirkaga etil spirtidan 1 ml, permanganat eritmasidan 1 ml, 2 % li sulfat kislota eritmasidan 10 tomchi oling.

Probirkadagi aralashmani ohista qizdiring. SHu zahotiyuq eritmaning pushti rangi yo'qolib, marganes (IV)—oksid hosil bo'lib, eritmaning loyqalanishini kuzating.


Ammo eritmada ortiqcha sulfat kislota bo'lsa, u erib marganes—sulfatning rangsiz eritmasini hosil qiladi. Probirkani sekin chayqating va yelpish orqali hidini aniqlang. O'ziga xos hid sezildimi? Reaksiya tenglamasini yozing va kuzatilgan hodisalarni izohlang.

Tajriba №5. Mis (II)- oksidi ta'sirida oksidlanishi.

Probirkaga 5 ml etil spirtidan oling. Mis simdan spiral tayyorlab, uning bir uchidan ushlab spirt lampasi alangasida qorayguncha yaxshilab qizdiring. Qizib turgan spiralni alangadan olib, spirtli probirkaga tushiring. Simning qoraygan qavati yo'qolib, tilla rangga o'tishini kuzating. SHu payt o'ziga xos hid paydo bo'lishiga ahamiyat bering. Reaksiya tenglamasini yozing.

Tajriba №6. Sirka aldegidning olinishi.

1. Ammoniy bixromat solingan probirkaga konsentrlangan sul'fat kislotadan 3 tomchi qo'shing.
2. Etil spirtidan 5 tomchi qo'shing.



Eritmaning rangi qanday o'zgaradi? Reaksiya davomida hid ajraladimi?

Reaksiya tenglamsini yozing.

Tajriba №7. Sirka aldegid sintezi Asbob va reaktivlar:




Etil spirti-10 gr, Kaliy bixromat-10 g, Sulfat kislota - 14 g

Sirka aldegid —etil spirtini kuchli oksidlovchi reagent — kaliy bixromat bilan kislotali muhitda iksidlashdan hosil bo'ladi.

Asosiy reaksiya:



Reaksiya quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:



Ishning bajarilishi: Ko'rinib turibdiki etil spirtning kuchli oksidlovchilar ishtirokiida oksidlanishi murakkab jarayon. Demak, tajribani shunday o'tkazish kerakki, natijada maqsaddagi mahsulot ko'p chiqsin. Buning uchun sintez o'tadigan asbob o'ziga xos qilib yig'iladi. Sovitgich bir vaqtning o'zida ham qaytar ham to'g'ri bo'lib xizmat qiladi.


Sovitgich ichidagi suv xarorati 30⁰S bo'lishi shart-shunda sovitgich orqali faqat sirka aldegid o'tib (T=21⁰S), muz solingan stakanga joylashgan kabul idishiga yigiladi.

Tajriba №8. Aldegid guruhiga sifat reaksiyalar

A) Kumush oksid ta'sirida oksidlanishi – «Kumush ko'zgu» reaksiyasi.

Reaktiv va materiallar : kumush nitrat eritmasi, ammoniy gidroksid eritmasi, sirka aldegid; probirkalar, elektr plita.


Toza va quruq probirkaga 1 ml kumush nitrat eritmasidan quyding, uning ustiga avval hosil bo'lgan oq cho'kma erib ketguncha, oz-ozdan ammoniy gidroksid eritmasidan qo'shing. Shu eritmaga 5-6 tomchi sirka aldegid tomizing. Aralashmani ohista qizdiring. Probirka tubida kumush jilo (kumush ko'zgu) hosil bo'ladi:





LABORATORIYA ISHI № 6

BENZOY KISLOTA SINTEZ QILISHNI O'RGANISH. MOYDAN SOVUN, SOVUNDAN MOY KISLOTALARI OLISH

Tajriba №1. Benzoil kislota sintezi. Asbob va reaktivlar: toluol-2 g, kaliy permanganat -6,2g, xlorid kislota-2-3 tomchi



Ishning bajarilishi: Xajmi 100 ml kolbaga 2 g toluol, 60-70 ml suv aralashmasiga, oz-ozdan 6,2 g maydalangan kaliy permanganadni aralashtirib turib qo'shing. Aralashmani 30-40 minut davomida qaynating. Kolba og'ziga sharsimon qaytar sovitgich o'rnatilgan bo'lsin. Qaynash bir meyorda borishi uchun aralashmaga ikki – uch dona qaynatar tashlab qo'ying. Reaksiya tugagach, permanganatning binafsha rangi marganes-(IV)-oksidning qo'ng'ir rangiga aylanadi. Oksid cho'kma tushib, aralashma tinsa, suyuqlik rangsiz bo'lib, qolishi kerak. Aks holda aralashmaga 3-5 ml spirt yoki 1 g oksalat kislota qo'shib, suyuqlikni yana qizdirib rangsizlantiring. Cho'kmadagi marganes-(IV)-oksidini nutch-filtrida filtrlang, cho'kmani ikki marta 10-15 ml iliq suv bilan yuving.




Filtratni 30-35 ml eritma qolguncha bug'latding. Xlorid kislota qo'shib, kislotali sharoit yarating. Sovuq suv bilan yuving. Quriting va torting. Unum nazariy xisoblanganining 70-80%-ni tashkil qiladi. Toza benzoil kislota 120-121⁰S da suyuqlanadi.

Tajriba №2. Sovundan yuqori molekulyar kislotalar va erimaydigan sovunlar hosil qilish.

a) Probirkaga 2 ml konsentrlangan sovun eritmasidan olib, unga 2 n li sulfat kislota eritmasidan bir necha tomchi tomizing. Iviqsimon cho'kma hosil bo'lishini kuzating. Reaksiya tenglamasini yozib, kuzatilgan hodisani izohlang:




- a) Ikkita probirkaga 2 ml dan sovun eritmasi soling. Birinchi probirkaga 1 ml kalsiy xlorid eritmasidan, ikkinchi probirkaga 1 ml mis (II) – sulfat eritmasidan qo'shing. Cho'kma hosil bo'lishini kuzating va reaksiya tenglamalarini yozing. Nima uchun sovuq suvda sovunning yuvish xossasini kamayishini tushuntiring:



LABORATORIYA ISHI № 7

ATSETANILID SINTEZ QILISHNI KUZATISH VA O'RGANISH. SULFANIL KISLOTA
SINTEZ QILISHNI O'RGANISH. p-NITROATSETANILID SINTEZ QILISHNI
O'RGANISH. p-NITROANILIN SINTEZ QILISH. β-NAFTOLORANJ SINTEZ QILISH.

Ацетанилид




Р е а к т и в ы:

Анилин свежеперегнанный	2,3 г (0,025 г-мол)
Уксусный ангидрид (синтез дан на с. 199)	3 мл (0,03 г-мол)
Уксуснокислый натрий	3,8 г
Соляная кислота (d 1,19)	2 мл
Активированный уголь	

В стакане к 60 мл воды приливают 2 мл концентрированной соляной кислоты и при помешивании прибавляют 2,3 г анилина. Если раствор окрашен, прибавляют 0,5 г активированного угля, содержимое стакана перемешивают в течение 5 мин и фильтруют. Бесцветный раствор нагревают до 50° С, приливают 3 мл уксусного ангидрида и перемешивают до полного его растворения. Затем немедленно приливают раствор, содержащий 3,8 г уксуснокислого натрия в 12 мл воды, хорошо перемешивают и охлаждают льдом. Выпавшие кристаллы ацетанилида отфильтровывают на воронке Бюхнера и промывают небольшим количеством ледяной воды. Продукт перекристаллизовывают из воды. Выход 2,7 г (80% теоретического), т. пл. 114° С.

Ацетилсалициловая кислота (аспирин)




Р е а к т и в ы:

Салициловая кислота 1,3 г (0,0094 г-мол)
 Уксусный ангидрид (синтез дан на с. 199) 1,2 г (0,012 г-мол)
 Серная кислота (d 1,84)
 Толуол

Синтез осуществляют в приборе, изображенном на рис. 38. В реакционной пробирке, снабженной обратным пальчиковым холодильником, растворяют при слабом нагревании 1,3 г салициловой кислоты в 1,2 г уксусного ангидрида и затем прибавляют одну каплю концентрированной серной кислоты. Реакционную смесь нагревают один час на водяной бане при 60°C . Затем повышают температуру бани до $90-95^\circ\text{C}$ и продолжают нагревание еще один час. Реакционную смесь охлаждают при помешивании; продукт реакции отсасывают на фильтре Шотта (примечание) и промывают его сначала ледяной водой, а затем небольшим количеством холодного толуола. Выход 1,5 г (88% теоретического), т. пл. 135°C . В случае недостаточной чистоты препарата его можно перекристаллизовать из бензола или хлороформа.

ПРИМЕЧАНИЕ. Из маточного раствора выпариванием и последующей перекристаллизацией удастся получить еще некоторое количество аспирина.

Tajriba №1. p-Nitroatsetanilid sintezi Asbob va reaktivlar: Asetoanilid-1 g, Konsentrlangan sulfat kislota -2ml, Nitrat kislota - 0,4ml, Muz-3g




Ishning bajarilishi: Katta probirkada maydalab kukun holiga keltirilgan 1g asetanilid bilan 1ml muz, sirka kislota aralashtiriladi va uning ustiga 2ml konsentrlangan sulfat kislota qo'shiladi. Aralashma sovitilib (temperatura 25°C -dan oshmasligi lozim) 0,4ml nitrat kislota ($d_4^{20} = 1,5$) qo'shib bir soat qoldiriladi. Aralashmaga 3g maydalangan muz qo'shib hosil bo'lgan p-nitroatsetanilid kristallari Shotte mikro voronkasida filtrlanadi, hamda filtr qog'oz orasida quritiladi. P-nitroatsetanilidning hosil bo'lishi 1,3g (91%), erish temperaturasi 207°C .

Tajriba №1. p-Nitroanilin qizili sintezi.

Reaktivlar.	p-Nitronaftalin	-0,5 g
	Xlorid kislota (konsentrlangan)	-1,5 g
	Natriy nitrit	-0,3g
	Natriy asetat (3ml suvdagi eritmasi)	-1 g
	Natriy gidroksid (2ml suvdagi eritmasi)	-2 n
	Natriy xlor (20%-li)	-10 ml

Asosiy reaksiya:



0,5 g p-nitroanilin, 10ml suv va 1,5ml konsentrlangan xlorid kislota 50 ml-li stakanda aralashtirib eritiladi. Stakan muz va osh tuzidan iborat muzlatuvchi aralashmaga tushiriladi va sovutiladi, shisha tayoqcha bilan aralashtirib 0,3 g natriy nitritning 2 ml suvdagi eritmasi tomchilab qo'shiladi, hosil bo'lgan cho'kma 1:1 nisbatda suyultirilgan xlorid kislota bilan eritiladi.

Yod kraxmal qog'ozining ko'karish diazotirlash reaksiyasini tugaganligini ko'rsatadi. Aralashma yarim soat suvda qoldiriladi, unga 1 g natriy asetatning 3 ml suvdagi eritmasi qo'shiladi.

Hosil bo'lgan cho'kma filtrlanadi.



Boshqa stakanda 0,5 g r-naftolning 2 ml 2 n. natriy ishqordagi eritmasi tayyorlanadi, sovutiladi birinchi stakandagi aralashmaga shisha tayoqcha bilan aralashtirilib qo'shiladi. Hosil bo'lgan p-nitroanilinning eritmasi va 10 ml suv bilan yuvilib havoda quritiladi. P-nitroanilin qizilning hosil bo'lishi 1 g (90%).

Tajriba №1 β-Naftolaranj sintezi

Reaktivlar:	Sulfanil kislota	- 1 g
	O'yuchi natriy 10 %-li	- 2 ml
	Natriy nitrit	- 0,4
	Xlorid kislota 8%	- 5 ml
	β- Naftol	- 0,7
	Natriy xlorid	- 5 g
	Suv	- 5 ml

25-ml-li stakanda 1 g sulfonil kislota, 2 ml 10%-li ishqor eritmada ozroq qizdirib eritiladi. Eritmani muhiti ishqoriy muhitga ega ekanligini lakmus qog'oz bilan tekshirib so'ngra unga 0,4 g natriy nitritning 5 ml-li suvdagi eritmasini qo'shiladi. Hosil bo'lgan aralashma boshqa stakanda tayyorlangan 0,7 g xlorid β- naftol, 10 ml 10%-li ishqor eritmasiga aralashtirib quyiladi va 20 minut shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi. Hosil bo'lgan qizil rang eritmaga 5g maydalangan osh tuzi qo'shib aralashtiriladi va 0,5 soatga qoldiriladi. Hosil bo'lgan cho'kma filtrlanib 5 ml sovuq suv bilan yuviladi. Hamda filtr qogoz orasida quritiladi.

β-naftoloranjning miqdori 1,8g (56%)



LABORATORIYA ISHI № 8

OQSILLAR. OQSILLARGA XOS KSANTOPROTEIN REAKSIYASINI KUZATISH. OQSILLARNING BIURET REAKSIYALARINI O'RGANISH

Tajriba №1. Oqsillarga xos rangli reaksiyalar


Reaktiv va materiallar : tuxum oqsili eritmasi, kons. nitrat kislota, 10 % li ammiak eritmasi, natriy gidroksidning 10 % li eritmasi, 2 % li mis (II)- sulfat eritmasi; probirkalar, menzurka, isitish asbobi.

1. **Ksantoprotein reaksiyasi.** Probirkaga 2–3 ml tuxum oqsili eritmasidan quyung va unga ehtiyotkorlik bilan 1–2 ml kons. HNO_3 qo'shing va bu aralashmani ohistalik bilan qizdiring. Bunda oqsil moddasi bir joyga to'planib oladi va sariq bo'yalish ro'y beradi. Probirkadagi aralashmaga 10 % li ammiak eritmasidan qo'shganda sariq rangli eritma to'q-sariq rangga bo'yaladi. Bunday bo'yalish oqsil moddalar tarkibida aromatik yadrolar (fenilalanin, tirozin, triptofan) ning borligini ko'rsatadi.

2. **Biuret reaksiyasi.** Probirkaga 2–3 ml tuxum oqsili eritmasi, 2–3 ml o'yuvchi natriyning 10 % li eritmasidan quyung va unga 2 % li mis (II)- sulfat eritmasidan 1–2 tomchi tomizing. Bunda eritma binafsha rangga bo'yaladi. Bu bo'yalish oqsil tarkibida ($-\text{NH}-\text{CO}-$) peptid bog'i borligini ko'rsatadi.

Tajriba №2. Oqsillarning cho'kishi

